

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA  
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI  
MAGISTRATURA BO'LIMI**

*Qo'lyozma huquqida  
UDK: 336.11*

**NURILLAEV XUSNIDDIN NARZULLO O'G'LI**

**KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK  
SUB'EKTLARINING INVESTITSIYA LOYIHALARINI  
MOLIYALASHTIRISH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH  
MASALALARI**

**Mutaxassislik: 5A230601 "Davlat moliyasini boshqarish"**

**Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan**

**DISSERTATSIYA**

**Ilmiy rahbar**

**dots. Rashidova N.**

**Toshkent – 2018**

**Dissertatsiya Toshkent moliya instituti “Moliya” kafedrasida bajarilgan.**

**Ilmiy rahbar**

**dots. Rashidova N.**

**Kafedra mudiri**

**i.f.d., prof Malikov T.S.**

**Magistratura bo’limi boshlig’i**

**i.f.n., dots Ortiqov U.D.**

Men, Nurillaev Xusniddin Narzullo o’g’li ushbu magistrlik dissertatsiya ishini mustaqil bajardim. Ko’chirmachilik holati yo’qligiga javob beraman. Ko’chirmachilikka yo’l qo’ygan holatimda magistrlik dissertatsiya ishi Yakuniy Davlat Attestatsiya Komissiyasi raisi taqdimnomasiga asosan bekor qilinishi va “Qoniqarsiz” baho qo’yilishidan xabardorman.

Nurillaev X.

“ \_\_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_

## MUNDARIJA

<b>KIRISH.....</b>	<b>3</b>
<b>I BOB. KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK FAOLIYATINI AMALGA OSHIRISHDA MOLIYALASHTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI.....</b>	<b>8</b>
1.1. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatini amalga oshirishning tashkil etish asoslari.....	8
1.2. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni moliyalashtirish manbalari.....	13
1.3. O'zbekiston iqtisodiyotida kichik biznesning o'rni va ahamiyati I bob bo'yicha xulosalar.....	22 29
<b>II BOB. KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUB'EKTLARINING INVESTITSIYA LOYIHALARINI MOLIYALASHTIRISH AMALIYOTI TAHLILI.....</b>	<b>31</b>
2.1. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining moliyalashtirish amaliyotini holati tahlili.....	31
2.2. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining faol investitsiya loyihalarini moliyalashtirish va o'zlashtirilayotgan xorijiy investitsiyalar tahlili.....	40
2.3. Kichik biznesni xalqaro kredit tashkilotlari liniyalari orqali kreditlash mexanizmining tahlili.....	46
II bob bo'yicha xulosalar.....	53
<b>III BOB. KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI MOLIYALASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....</b>	<b>55</b>
3.1. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining investitsion va ishbilarmonlik muhitini barqarorlashtirish yo'llari	55
3.2. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlari faoliyatiga xorijiy investitsiyalarni jalb etishni takomillashtirish yo'nalishlari.....	67
III bob bo'yicha xulosalar.....	75
<b>XULOSA VA TAKLIFLAR.....</b>	<b>77</b>
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....</b>	<b>81</b>

## KIRISH

**Tadqiqot mavzusining dolzarbligi.** Milliy iqtisodiyotda muhim o'rin egallab borayotgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasini yanada rivojlantirish hamda bu orqali ichki bozorni raqobatbardosh, sifatli va eksportbop mahsulotlar bilan to'ldirish, yangi ish o'rinlari yaratish hamda buning asosida aholi daromadlarini ko'paytirish va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash borasida ahamiyatga molik ishlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan bir qatorda, bu soha davlat byudjetiga soliq to'lov tushumlari hajmining ko'payishi va iqtisodiy rivojlanishning asosiy ko'rsatkichi hisoblangan yalpi ichki mahsulot salmog'ining oshishiga asosiy turtki bo'lmoqda. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyati jamiyatimizdagi ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy barqarorlikning tayanchiga hamda asosiy kuchiga aylanib bormoqda.

Mamlakatimizning iqtisodiy islohatlarini bosqichlarida iqtisodiyotimizning tarkibiy tuzilmasida tub o'zgarishlarga asos solishdan iborat g'oyat muhim masala bu tadbirkorlik va xususiy biznesni tashkil etish va rivojlantirishdir.

Bu maqsadni amalga oshirish uchun qator iqtisodiy islohotlar o'tkazildi, uning rolini oshirish uchun yirik institutsional asoslar yaratildi. Tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish va uni kafolatlovchi huquqiy-me'yoriy hujjatlar, tadbirkorlarga ko'maklashuvchi nodavlat tashkilotlar, korxonalar shular jumlasiga kiradi. Bir so'z bilan aytganda, O'zbekistonda xususiy tadbirkorlik va kichik biznes korxonalarini majmuini tashkil etish muvaffaqiyatli bormoqda.

Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev mazkur korxonalar faoliyati borasida shunday degandilar: "Joriy yil 5 oktyabrdagi Farmon bilan tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta'minlashga, xususiy mulkni har tomonlama ximoya qilish va ishbilarmonlik muxitini sifat jixatidan yaxshilashga doir kompleks chora-tadbirlar dasturi tasdiqlandi.

Tajribali va malakali mutaxassislar tomonidan yangitdan tayyorlangan mazkur davlat dasturi bu borada qabul qilingan qonun hujjatlari talablariga so'zsiz amal qilinishini ta'minlashga qaratilgan. U davlat tomonidan kichik biznes va

xususiy tadbirkorlikni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, bu sohaning huquq va kafolatlarini himoya qilishni yanada kuchaytirish, tadbirkorlar faoliyatini asossiz tekshirishlarga chek qo'yish chora-tadbirlarini o'z ichiga oladi.<sup>1</sup>

Darhaqiqat, kichik biznes korxonalari bugungi kunda milliy iqtisodiyotimizning qon tomirlariga aylanib ulgurdi. Ular faoliyatini yanada kengaytirishda, kichik korxonalarni rivojlantirishda albatta ular faoliyatini qo'llab-quvvatlash, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlari faoliyatiga milliy va xorijiy investitsiyalarni jalb etish orqali ular faoliyatini yanada kengaytirish eng dolzarb masalalardan biridir. Tadqiqot ishning mavzusi ham bugungi kunda dolzarb bo'lgan mazkur masalaga bag'ishlangan.

**Tadqiqot ob'ekti va predmeti.** Respublikamizda faoliyat yuritayotgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining investitsiya loyihalarini moliyalashtirish, ular faoliyatiga yo'naltirilayotgan investitsiya tadqiqot ishining ob'yekti bo'lib hisoblanadi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatiga xorijiy investitsiyalarni jalb etish jarayonida vujudga keluvchi moliyaviy munosabatlar tadqiqot ishining predmetini tashkil etadi.

**Tadqiqot maqsadi va vazifalari.** Tadqiqot ishining asosiy maqsadi O'zbekiston Respublikasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlari faoliyatiga xorijiy investitsiyalarni jalb etish amaliyotini o'rganish va tahlil qilish asosida, uni takomillashtirishga qaratilgan xulosa va takliflar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot ishining maqsadiga erishish uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirish belgilab olindi:

- kichik biznes va tadbirkorlik tushunchalari, ularning mohiyati va mazmunini o'rganish;
- O'zbekiston iqtisodiyotida kichik biznesning o'rni va ahamiyatini nazariy jihatdan o'rganish;
- O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning huquqiy asoslarini yoritib berish;

---

<sup>1</sup> Mirziyoyev Sh. "Buyuk kelajagimizni mard va oliy janob xalqimiz bilan birga quramiz." Toshkent: "O'zbekiston" 2017 y.-92 bet

- mamlakatimiz iqtisodiyotiga kiritilayotgan xorijiy investitsiyalar miqdori va yo'nalishlarining tahlili qilish;

- xalqaro moliya tashkilotlari mablag'lari hisobidan kichik biznesni kreditlashning amaldagi holatini tahlilini amalga oshirish;

- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlari faoliyatiga xorijiy investitsiyalarni jalb etishni takomillashtirish yo'nalishlari qaratilgan xulosa va takliflar ishlab chiqish.

**Ilmiy yangiliklar.** Tadqiqot natijalarining ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

- kichik biznes va tadbirkorlikning iqtisodiy kategoriya sifatidagi ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati hamda respublikada kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni moliyaviy ta'minlashning o'ziga xos xususiyatlari va ahamiyati ochib berildi;

- kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ahamiyatini hisobga olgan holda uni moliyaviy ta'minlashning samaradorligini baholashga uslubiy yondoshuv ishlab chiqildi;

- kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni moliyaviy ta'minlash jarayoniga salbiy ta'sir etuvchi omillar aniqlandi;

- kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni moliyaviy ta'minlash samaradorligini oshirishning asosiy yo'llariga asoslangan va raqobat muhitini shakllantirish bo'yicha, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatiga investitsiyalarni jalb etishni bo'yicha va moliyaviy institutlarni rivojlantirish va xorijiy investitsiyalarini jalb etish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqildi.

**Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari.** Magistrlik dissertatsiya ishi yuzasidan olib borilgan tadqiqot natijalariga asosan ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarning amaliyotda qo'llanilishi va kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatiga investitsiyalarni jalb etishni tashkil etilishiga olib kelishi mumkin.

**Tadqiqot mavzusi bo'yicha adabiyotlar sharhi.** Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida moliya, davlat byudjeti, kichik biznes, tadbirkorlik

sub'ektlari, investitsiyalarni jalb etish hamda xorijiy investitsiyalarni samarali tashkil etish masalalariga oid muammolarni tadqiq etish bo'yicha o'zining alohida hissalarini qo'shgan respublikamiz iqtisodchi-olimlari Vahobov A.V., Malikov T.S., Haydarov N.H., Jo'raev A.S., Z.Yo'ldoshevlar<sup>2</sup>, shuningdek, xorijlik iqtisodchi-olimlar Aleshin V.A., Zotova A.I., Neshitoy A.S., Polyaka G.B., Shaxovskaya L.S., Xoxlov V.V., O.G.Kulakovalarning ilmiy ishlari, o'quv qo'llanmalari va darsliklarini nazariy va amaliy jihatlarini tahlil qilgan holda dissertatsiya tayyorlashda foydalanildi.<sup>3</sup>

**Tadqiqotda qo'llanilgan metodikaning tavsifi.** Dissertatsiya jarayonida mantiqiy fikrlash, ilmiy abstraktsiya, prognozlash, sintez, matematik, induktsiya, deduktsiya, tizimli yondashuv, strategig tahlil, tarkibiy va qiyosiy tahlil, iqtisodiy taqqoslash, ilmiy umumlashtirish, statistik hisoblash va ilmiy bashoratlash usullaridan foydalanildi.

**Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining nazariy ahamiyati dissertatsiyada ilgari surilgan ilmiy-nazariy va amaliy g'oyalar, ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalardan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatiga investitsiyalarni ta'minlash va uni samarali tashkil etishga qaratilgan, kelgusidagi maxsus ilmiy tadqiqot ishlarida foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi. Tadqiqot ishining amaliy ahamiyati kichik biznes, tadbirkorlik sub'ektlari, investitsiyalarni jalb etish, xorijiy investitsiyalarni samarali tashkil etish va samaradorligini oshirishga qaratilgan nazariy va amaliy tavsiyalardan davlat moliyasini samarali tashkil etish va rivojlantirish bo'yicha kichik biznes tadbirkorlik sub'ektlarining dasturlarini ishlab chiqilishida foydalanish mumkin. Dissertatsiya materiallaridan oliy o'quv

---

<sup>2</sup> Vahobov A.V., Malikov T.S. Moliya: umumnazariy masalalar. – T.: Iqtisod-moliya, 2008. – 316 b.; Jo'raev A.S. Davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishning samarali yo'llari. – Toshkent: "Fan", 2004. – 243 b.; Malikov T. Soliqlar va soliqqa tortishning dolzarb masalalari. – Toshkent: "Akademiya", 2002. – 204 b.; Haydarov N.H. Soliqlar va soliqqa tortish masalalari: O'quv qo'llanma. – Toshkent: "Akademiya", 2007. – 256 b.; Yo'ldoshev Z., Malikov T. Uy xo'jaligi moliyasi. o'quv qo'llanma, Toshkent "IQTISOD-MOLIYA", 2008. - 105 b.; Malikov T.S., Haydarov N.H. Moliya: umumdavlat moliyasi. / O'quv qo'llanma. - Toshkent: "Iqtisod-moliya", 2009. – 556 b.

<sup>3</sup> Алешин В.А., Зотова А.И.. Финансы: учебник. - Ростов н/ Д: Феникс, 2009 г. – 346 стр.; Нешитой А.С. Финансы. Учебник. – М.: "Дашков и К", 2009 г. – 528 стр; Поляк Г.Б. Финансы и кредит. Учебник.– М.: Влотерс Клувер, 2010 г. – 800 стр.; Шаховская Л.С., Хохлов В.В., Кулакова О.Г. и др. Бюджетирование: теория и практика: учебное пособие / – М.: КНОРУС, 2009 г. – 400 стр.

yurtlarida “Moliya”, “Davlat moliyasini boshqarish”, “Kichik biznes”, “Tadbirkorlik sub’ektlari”, Investitsiyalarni jalb etish”, “Davlat byudjeti” fanlarining o’quv dasturlarini takomillashtirish va o’qitish jarayonida foydalanish mumkin.

**Tadqiqot ishi tarkibining tavsifi.** Tadqiqot ishida o'rganilayotgan masalalarning mohiyatidan kelib chiqib kirish, uchta bob, har bir bob bo'yicha xulosa, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.



# **I BOB. KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK FAOLIYATINI AMALGA OSHIRISHDA MOLIYALASHTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI**

## **1.1. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatini amalga oshirishning tashkil etish asoslari**

Bozor munosabatlari sharoitida iqtisodiyotni rivojlantirishning asosiy omillaridan biri kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishdir.

Tadbirkorlik shaxsiy daromad, foyda olishga qaratilgan fuqarolarning mustaqil faoliyati. Bu faoliyat o'z nomidan, o'z mulkiy ma'suliyati va yuridik shaxsning yuridik mas'uliyati evaziga amalga oshiriladi. Tadbirkor qonun tomonidan ta'qiqlanmagan barcha xo'jalik faoliyati, shu jumladan, vositachilik, sotish, sotib olish, maslahat berish, qimmatbaho qog'ozlar bilan ish olib borish bilan shug'ullanishi mumkin. Tadbirkorlik shaxsiy va ijtimoiy foydalarni ko'zlagan holda daromad olish uchun sarflanayotgan mablag' bilan bog'liq faoliyatdir.

Jumladan Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek: "...«O'z tadbirkoreksport» va «O'z sanoateksport» aktsiyadorlik jamiyatlari, shuningdek, Milliy bank huzuridagi Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining eksportini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi yo'nalishi bo'yicha kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari eksporti bilan bog'liq. Bu borada kamida 1 milliard 500 million dollarlik eksportni ta'minlash kerak.”<sup>4</sup>

Davlat moliyasini barqarorligini ta'minlashdakichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatini amalga oshirishning tutgan o'rni jamiyat taraqqiyotida, siyosiy va ijtimoiy o'zgarishlarning eng muhim omili bo'lib xizmat qiladi. Ayniqsa o'tish davrida bozor islohotlari turlicha namoyon bo'layotgan mamlakatlar, xususan, MDH davlatlarida bu tendentsiya yaqqol ko'zga tashlanmoqda. Bunday sharoitda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari

---

<sup>4</sup> Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi "Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak" nomli ma'ruzasi, 2017 yil 14 yanvar, 17 bet.

faoliyatini amalga oshirishda qator funksiyalarni bajaradi. Uning siyosiy funksiyasi jamiyat iqtisodiyotining asosiy bo'g'ini — o'rta mulkdorlar sinfining shakllanish manbai sifatida namoyon bo'lishidadir.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlari – foyda olish maqsadida resurslardan yanada samarali foydalanishga qaratilgan xo'jalik faoliyatining muhim turidir. Ushbu jarayon quyidagilar orqali izohlanadi:

- tadbirkorlik kishilarning tavakkalchilik va mas'uliyat bilan bog'liq tashabbuskorlik faoliyati demakdir;

- tadbirkorlik cheklangan va innovatsion yondashuvni talab qiladigan resurslardan yanada oqilona foydalanishga qaratiladi;

- tadbirkorlik faoliyati qo'shimcha daromad va foyda keltirgan taqdirdagina o'zini oqlagan hisoblanadi. Tadbirkorlik faoliyati davomida, bozor iqtisodiyotining nimani, qanday, kim uchun ishlab chiqarish kerak, degan muhim masalalari o'z yechimini topadi.

Iqtisodiy erkinlik (mustaqillik), to'liq moddiy javobgarlik, maksimal darajada foyda olishga qaratilgan tijorat faoliyati tadbirkorlikning eng muhim iqtisodiy tamoyillari hisoblanadi. Tadbirkorlikning ikkita muhim turi – savdo-sotiqqa asoslangan, narxlardagi farqlar hisobidan foyda olishni nazarda tutadigan hamda aniq iste'molchining ehtiyojlariga mos holda mahsulot ishlab chiqarish va sotishga asoslangan faoliyatni ajratib ko'rsatish mumkin. Bozor iqtisodiyoti sharoitida mulkchilikning barcha shakli – davlat, xususiy (rivojlanishda ustunlikka ega), jamoa, shaxsiy hamda aralash shakllari teng huquqli tarzda taraqqiy etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev rahbarligida ishlab chiqilgan “2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasi”<sup>5</sup> mamlakatni isloh qilish va rivojlantirishning samarali strategiyasi izchil va aniq maqsadni ko'zlab amalga oshirilishi rejalashtirilgan, global iqtisodiyotda mavjud bo'lgan jiddiy muammolarga qaramay, O'zbekistonda iqtisodiy o'sishning barqaror yuqori

---

<sup>5</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning “2017 — 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha HARAKATLAR STRATEGIYASI”, PF-4947-sonli farmoni, 2017 yil 7 fevral.

sur'atlarini va makroiqtisodiy barqarorlikni saqlash ta'minlanmoqda. O'tgan, 2016-yilda Mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti 7,8 foiz, sanoat ishlab chiqarish hajmi 6,6 foizga, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi 9,6 foiz, kapital qurilish 5 foiz, chakana savdo aylanmasi hajmi 12,5 foizga oshdi. Ishlab chiqarilgan mahsulotlarning qariyb 70 foizini yuqori qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan tayyor tovarlar tashkil etdi. Davlat budjeti yalpi ichki mahsulotga nisbatan 0,1 foiz miqdorida profitsit bilan ijro etildi. Inflyatsiya darajasi prognoz ko'rsatkichlaridan oshmadi.<sup>6</sup>

Ichki talabni mutanosib rag'batlantirish hamda mahalliy tovar ishlab chiqaruvchi va xizmat ko'rsatuvchilarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash borasida ko'rilayotgan chora-tadbirlar iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmining 14,4 foizga, chakana tovar aylanmasining – 14,6 foizga, xizmatlarning — 12,1 foizga o'sishini ta'minladi. Yalpi ichki mahsulotda xizmatlar sohasining ulushi 2016-yilning birinchi yarim yilligi yakunlari bo'yicha 52,2 foiz o'rniga 52,4 foizgacha o'sdi. Mahalliyashtirilgan mahsulot ishlab chiqarish hajmi 36,1 foizga ko'paydi.

Tadbirkorlik faoliyati iqtisodiyotni barqarorlashtirish va bozor iqtisodiyotini qaror toptirishda muhim ahamiyatga ega. U xo'jalik yuritishning samarali usullarini rag'batlantiradi, tashabbuskorlik va innovatsion faoliyatga keng yo'l ochadi, pirovardida iqtisodiyotni barqarorlashtirib, jamiyat taraqqiyotini ta'minlaydi.

Shuningdek, 2011 yilning 1 apreldan to 2014 yilning 1 aprelegacha soliq va boshqa majburiy to'lovlarni vaqtida to'lab kelayotgan hamda ishlab chiqarish sur'atlarining barqaror o'sishi va rentabellikni ta'minlab kelayotgan kichik tadbirkorlik sub'ektlarining moliya-xo'jalik faoliyatini soliq sohasida tekshirish ham taqiqlab qo'yildi. Bu hujjatlar mamlakatimiz iqtisodiyotida kichik biznes va tadbirkorlikning roli, ulushi va miqyosini kengaytirdi, uning iqtisodiyotdagi

---

<sup>6</sup> Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi "Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak" nomli ma'ruzasi, 2017 yil 14 yanvar.

mavqyeini kuchaytirdi. Davlat statistika qo'mitasining ma'lumotlariga ko'ra 1996 yildan 2011 yilga qadar kichik biznes va tadbirkorlik sohasiga soliq stavkasi 36 dan 6 foizgacha, ya'ni olti barobardan ziyod kamaytirildi.<sup>7</sup> Kichik biznes va tadbirkorlikning afzalliklari ko'p. Bunda bozor kon'yunkturasiga tez moslashish, talabning o'zgarishini tez ilg'ash, faoliyatning bir turidan boshqasiga kam xarajat evaziga tezda moslashish imkoniyatlari yaratiladi. Faoliyatning ushbu sektori bandlik muammosini hal qilish, odamga o'zining erkin mehnati natijalaridan moddiy manfaatdorligini oshirishda juda muhimdir. Shu nuqtai nazardan, bugun hamyurtlarimizning chakana savdo, maishiy xizmat bilan shug'ullanayotganlari, ishlab chiqarish jarayoniga faol kirib borayotganlari, ayni muddaodir. Iqtisodiyot vazirligi va Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra kichik biznesda sanoat ishlab chiqarishi hajmining o'sish sur'atlari umumiy sanoatdagi o'rtacha ko'rsatkichdan 2-3 marta ko'pdir.

Bugungi kunda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik fuqarolar bandligini ta'minlashning muhim sharti hamda aholi daromadining barqaror manbai bo'lib bormoqda. Mustaqillikning dastlabki yillarida O'zbekistonda kichik biznesning ulushi yalpi ijtimoiy mahsulotning bor-yo'g'i 1,5 foizini tashkil etgan bo'lsa, 2011 yilda ushbu raqam 31, 2012 yil yakunida esa 52,5 foizga ko'tarildi. 2013 yilda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishi evaziga 500 mingga yaqin yangi ish joylari tashkil etildi. 2013 yilda yalpi ichki mahsulotda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi 55,8 foizga yetkaziladi va 2014 yilda yalpi ichki mahsulot tarkibida kichik biznes ulushi 31,1 foizdan 52,5 foizga o'sdi, ushbu sohada bandlik darajasi iqtisodiyot tarmoqlarida ish bilan band aholi umumiy sonining 49,7 foizidan 74,5 foizigacha oshdi. 2015 yilda bu ko'rsatkich 77,9 foiz, 2016 yilda 78,1 foizga oshgan bo'lsa, 2017 yilning birinchi choragida 77,7 foizga yetganini kuzatishimiz mumkin.<sup>8</sup> Aholi daromadlarining 47 foizdan ziyodi tadbirkorlik faoliyatidan tushgan daromadlar hissasiga to'g'ri keladi. Rivojlangan

---

<sup>7</sup> [www.stat.uz](http://www.stat.uz) internet sayti ma'lumotlari asosida talaba tomonidan tayyorlandi.

<sup>8</sup> [www.stat.uz](http://www.stat.uz) internet sayti ma'lumotlari asosida talaba tomonidan tayyorlandi.

mamlakatlarda ushbu ko'rsatkich 70 foizga yaqinligini hisobga olsak, bizda ushbu yo'nalishning kelajagi porloqligini e'tirof etish mumkin.

Mamlakatimizda iqtisodiy islohotlar jarayonida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada qo'llab-quvvatlash, ayniqsa qishloq joylarida uni ravnaq toptirish uchun keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik jihatdan yangilash jarayonlari eksportga yo'naltirilgan mahsulotlar ishlab chiqarish hamda yurtdoshlarimizning turmush farovonligini oshirishda muhim o'rin tutmoqda.

Qishloqda meva-sabzavot mahsulotlarini qayta ishlash korxonalari ilgari ham mavjud edi, albatta. Ammo ularning texnik jihozlanish darajasi ancha past bo'lib, ishlarning asosiy qismi qo'lda bajarilar, bu esa ko'p vaqtni talab qilar edi. Hozir tashkil etilayotgan korxonalarda esa ishlab chiqarish jarayonlari to'liq avtomatlashtirilgan bo'lib, operatorlar ish jarayonini kompyuter yordamida boshqaradilar. Bugungi kunda mazkur sohani rivojlantirish bo'yicha qator tadbirlar qilinmoqda hamda Prezidentimiz tomonlaridan katta vazifalar qo'yimoqda, jumladan: "...shu bois davlat banklari oldiga kuyidagi vazifalar qo'yilmoqtsa. Ular har bir oila bilan muloqot tashkil qilish orqali fuqarolarning tadbirkorlik bilan shug'ullanishi uchun qulay imkoniyatlar yaratishi kerak. Shu maqsadda tijorat banklari va ularning joylardagi filiallari, o'z imkoniyatlaridan kelib chiqib, tadbirkorlarga moliyaviy ko'mak va madad berishni zimmasiga oladi. Lo'nda qilib aytadigan bo'lsak, banklar endi xalqimizni tadbirkorlikka, ishbilarmonlikka o'rgatishi va shunga etaklashi lozim bo'ladi."<sup>9</sup>

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda xususiy biznesni tashkil qilish va har tomonlama rivojlantirish borasida ko'plab ishlar amalga oshirildi. Tadbirkorlik faoliyati sub'ektlarini ro'yxatga olishni tartibga keltirish, tadbirkorlar va xorijiy investorlarning manfaatlarini himoya qiluvchi huquqiy negizni mustahkamlash, ularning xom ashyo va moliyaviy resurslardan foydalanishlari uchun imkoniyat yaratish, imtiyozlar berish borasida amalga oshirilgan keng

---

<sup>9</sup> Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishangan Oliy Majlis palatalarining ko'shma majlisida "Erkin va farovon, demokratik o'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz" mavzusidagi nutqi, 15 bet, Toshkent, O'zbekiston, 2016 yil. 22-23 betlar.

ko'lamli tadbirlar mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik taraqqiyotida yangi ufqlar ochdi. Xullas, bugun tadbirkor davlat himoyasida bo'lib, olgan foydasiga to'la egalik qilish, o'zining faoliyat doirasini kengaytirish, muammoli vaziyatlarda sudga murojaat qilish imkoniyatlariga ega.

## **1.2. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni moliyalashtirish manbalari**

Iqtisodiyotning bozor munosabatlariga kirib borishi jarayonidagi turli mulk va xo'jalik yuritish shakllarining keng taraqqiyoti ular moliyaviy faoliyatini ishlab chiqarish samaradorligini rag'batlantirish maqsadlarida takomillashtirishning muhim, dolzarb muammo ekanligini isbotlamoqda. Yurtimizning istiqboli bozor xizmat tarmoqlarini shakllantirish bilan, kelgusida mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish, yakkahokimlikka qarshi tadbirlarni amalga oshirish, raqobat muhitini vujudga keltirish bilan uzviy bog'liqdirki, bozor munosabatlarini shakllantirish yuzasidan iqtisodiy islohotlar mazkur vazifalarining ijobiy hal etilishi korxonalar moliyaviy faoliyatini tashkil etishning bozor talablariga javob beruvchi holatidan ham kelib chiqadi. Shunga ko'ra, kichik biznes va turli tadbirkorlik shakllarining taraqqiyotida ular moliyaviy faoliyatini tashkil etish xususiyatlari, vazifalari, tarkibi va rivojlanish asoslarini o'rganish muhimdir.

Kichik biznes subyektlari tomonidan statistik va soliq hisobotlarini taqdim etish mexanizmlarisezilarli darajada soddalashtirildi. Bugungi kunda tadbirkorlik subyektlarining 98 foizi soliq va statistika hisobotlari topshirishni, bojxona deklaratsiyalarini rasmiylashtirishni eski usuldagi qog'oz to'ldirish yo'li bilan emas, balki bevosita – elektron shaklda amalga oshirmoqda. Sanoatning yengil, oziq-ovqat va qurilish materiallari ishlab chiqarish kabi ko'p mehnat talab qiladigan tarmoqlarida ishchilarning eng ko'p soni ilgari 100 kishidan 200 kishigacha oshirilgani kichik biznesni rag'batlantirish borasidagi chora-tadbirlar tizimidagi muhim qaror bo'ldi.<sup>10</sup>

---

<sup>10</sup> Karimov I.A. 2015 yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo'l ochib berish-ustivor vazifamizdir. Toshkent-“O'zbekiston”-2015y. 7-bet.

Bozor iqtisodiyoti rivojlanishi sharoitida kichik korxonalar moliyaviy faoliyatining mazmunigina emas, balki ularning vazifalari ham tub o'zgarishlarga duch keldi. Shu munosabat bilan ishning mazkur qismida biz bozor munosabatlari shakllanishi sharoitida kichik biznes korxonalari moliyaviy faoliyatini tashkil etishning asosiy vazifalarini kompleks holda ko'rib chiqishga harakat qildik.

Bizning fikrimizcha, "kichik biznes korxonalari moliyaviy faoliyati" tushunchasini tor va keng ma'noda ifodalash mumkin. Tor ma'noda kichik biznes korxonalari moliyaviy faoliyati alohida olingan kichik korxonalar, xususiy firma yoki tadbirkorlikning boshqa shakllari moliyaviy faoliyatidan iborat. Bu ma'noda "kichik biznes korxonalari moliyaviy faoliyati" tushunchasi "kichik korxonalar moliyaviy faoliyati", "xususiy firmalar moliyaviy faoliyati" va h.k. tushunchalar bilan bir xil mazmuni ifodalaydi.

Keng ma'noda "kichik biznes korxonalari moliyaviy faoliyati" tushunchasi ijtimoiy takror ishlab chiqarishning turli sohalarida faoliyat ko'rsatayotgan, bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan kichik biznes korxonalarining moliyaviy faoliyatini ifodalaydi. Mazkur tushunchaning keng ma'nosi uni tor ma'noda tushunishni to'la tarzda o'z ichiga oladi. Shu asosda kichik biznes korxonalari moliyasini korxonalar va xalq xo'jaligi tarmoqlari moliyasining muhim tarkibiy qismi sifatida talqin etish mumkin. O'z mohiyatiga ko'ra ular davlat tomonidan tartibga solib turiladigan pul munosabatlari bo'lib, mazkur munosabatlar kichik biznes korxonalarining hududiy va umumdavlat extiyohlari, fondlari va moliyaviy resurslarining tashkil etilishi, taqsimlanishi va ishlatilishi jarayonida vujudga keladi.

Uncha ko'p bo'lmagan yangi ishbilarmonlar o'z ishlarini o'zlari moliya bilan ta'minlaydilar. Ko'pchilik kishilar oz miqdorda bo'lsa ham, tashqi manbalarga muhtoj bo'ladilar. Pul resurslarining 4 ta toifasi mavjud:

1.Savdo krediti. Bu turdagi "Pul" to'g'ri ma'noda zayom vositasi hisoblanmaydi, haqiqatan bu tovarlar qiymati hisoblanadi. Uni sizning yetkazib beruvchilaringiz sizga pul to'lamasdan qarz qilib beradilar va qarni eslatilgan muddatlarda to'lash sharti bilan.

2.Qisqa muddatli kredit. Banklar va boshqa kredit beruvchilar, bu kabi kreditlar maxsus maqsadlar - muddatli kreditlar ehtiyot sifatida kelgusi mavsumda sotish uchun beriladi. Bu kabi kredit uchun qarz bir yilga yetmasdan uziladi.

3.Uzoq muddatli kredit. Bu zayomlar bir yildan ortiq muddatga korxonani kengaytirish yoki takomillashtirish uchun beriladi.

4.Aksionerlik investorining qatnashishi. Bu kabi resurslar qaytarilmaydi. Siz vositalarni olasiz va foydaning bir qismini investorga berasiz. Boshqacha qilib aytganda, siz o'z korxonangizning bir qismini sotasiz.

Pullarni qayerdan olish mumkin? Moliyaviy ta'minotning imkonli manbalari quyidagilardir:

- tijorat banki;
- moliyaviy kompaniyalar;
- investitsion kompaniyalar;
- investitsion fondlar;
- kredit idoralari;
- xaridorlar;
- mahsulot beruvchilar;
- do'st va tanishuvlar;
- xayriya tashkilotlari;
- trans kompaniyalar va banklarning trast bo'linmalari;
- davlat, xalqaro va jamiyat tashkiloti va idoralar, kichik bimesni qo'llab-quvvatlash dasturida ishtirok etuvchilar;
- ishlovchilar;
- dastgoh ishlab chiqaruvchilar;
- sug'urta kompaniyalari;
- nafaqa fondlar;
- xususiy investorlar;
- moliyaviy maslahatchilar.

Kimga va qayerga murojaat qilish kerak?

Keng tarqalgan moliyaviy manbalar:



Banklar-banklardan ssuda olish nihoyatda sodda. Sizga pul savdo operatsiyasi o'tkazish uchun bemalol, ammo yangi korxonalar buni yaratish uchun bemalol emas. Demak bankni ishonirish kerak. Bu ishda ishlab chiqarilgan biznes reja qo'l keladi. Quyidagi masalalarga alohida diqqat-e 'tibor qilish kerak:

- Olingan vositalar qanday ishlatiladi?
- Qarz qanday qilib to'lab beriladi?
- Kredit olish uchun qanday ta'minot taklif etilishi kerak.
- Tanlangan faoliyat uchun zarur tajriba va tayyorgarlikka egalik.
- Boshqaruv xodimlarining va yetakchi mutaxassislar ishi qanday?
- Ushbu biznes sohasining uzoq muddatli kelajak taraqqiyoti qanday?

Investitsion fondlar hissadorlik yuqori o'sish potensialiga ega, kichik korxonalar kapitaliga badallar to'lash mumkin. Ko'plari aniq tarmoq, texnologiyalar bo'yicha yoki ma'lum hajm uchun investitsiya loyihasiga ixtisoslashadilar. Ular bilan kelishuv paytida quyidagilarni esda tutish zarur: investitsion fondni bir kunda ko'rib chiqish uchun 30 dan ortiq buyurtmani va biznes-rejani qabul qilish mumkin, ulardan 10 % gina o'qib chiqiladi. O'qib chiqilganlardan faqat bir nechasigina yana davom etib o'qish uchun jo'natiladi va juda ozlari moliya olishi mumkin.

Tadbirkorlik yo'nalishi firmalarning strategik yo'nalishlarining alohida yo'nalishi bo'lib, resurslarni va imkoniyatlarni rivojlantirish uchun ichki firma orientatsiyasi sifatida ko'riladi

Tadbirkorlik yo'nalishi firmalarning yo'nalishini va yangi imkoniyatlarni o'rganishga intilishni anglatadi va shuning uchun firmaning innovatsionlik, xavf-xatarni va proaktivlikni qabul qilish tamoyillari orqali o'zini namoyon qiladi. Tadqiqot ishlariga katta e'tibor qaratib, tadbirkorlarga yo'naltirilgan jarayonlarning yuqori darajasiga ega bo'lgan firmalar yangi tashkiliy shakllar va atrof-muhit konfiguratsiyalarini yaratishda tajribaga ega va bozor mexanizmlarini o'z manfaatlariga moslashtira oladi. Tadbirkorlik yo'nalishini kapitalizatsiya qilish orqali firmalar biznes hamkorlari bilan loyihalarni amalga oshirishda yuqori tendentsiyani rivojlantiradi. Hamkorlik yo'li bilan olingan resurslar yangi

mahsulotni ishlab chiqish va bozorning ta'sirchanligi kabi qobiliyatlarni yaratishi mumkin. Natijada, firmalar ichida ishlab chiqilgan qobiliyatlar raqobatbardosh ustunlikni va ish faoliyatini oshiradi.<sup>11</sup>

Davlat va jamiyat tashkilotlari. Bugungi kunda kichik biznesni qo'llashni o'zlarining asosiy vazifasi deb hisoblaydigan davlat va jamiyat tashkilotlarining soni ko'paymoqda. Ular faqat moliyaviy yordam qilmasdan, balki (qoida bo'yicha imtiyozli kredit shaklida), xodimlarni o'qitish va boshqa ishlarda yordam beradi.

Bu kabi tashkilotlarga qo'llash uchun murojaat qilishdan oldin ularni o'ziga xos talablarini bilish kerak, ko'plari ular uchun kerakli sohalaridagi kichik korxonalar yoki alohida ijtimoiy guruhlariga zaxiraga bo'shatilgan harbiylarga yordam ko'rsatadi.

Kapitalni jalb qilishning boshqa imkoniyatlari ham bor. Masalan, ixtirochi investorlar guruhidan moliya olish mumkin, buning uchun u agar ishi yurishmay, qolganda o'zining ishlab chiqqan texnologiyasiga egalik huquqini ularga topshirishi kerak. Xorijiy moliya manbalari mavjud. Masalan, xorijiy firmalar, ular boshqa davlatlarga investitsiya qilish imkoniyatlarini faol o'rganmoqdalar.

Kichik biznesning ishbilarmonlik tarkiblarini kredit bilan ta'minlash - bu ularga moliyaviy pul yoki tovar shaklidagi vositalarni muddatga xo'jalik faoliyatini amalga oshirish uchun berishdir. Kredit bilan ta'minlashni quyidagi turlari mavjud:

- Xo'jalik yurituvchi subyektlarga pul ssudalarini yoki tovarni kapital o'rnida to'g'ridan-to'g'ri berish shakli.
- Hisob-kitob turlaridan biri sifatida kredit bilan ta'minlash, ya'ni to'lov muhlati uzaytirilganligi hisobi bilan.

Bu yerda "Kredit" tushunchasi keng ma'noga ega. Birinchidan: Kredit to'lash va foiz to'lash sharti bilan ssuda ko'rinishida pul yoki tovar shaklida bo'lishi mumkin. Yuridik yoki jismoniy shaxslar qarzgavosita beruvchilar - kreditorlar, oluvchilar - zayomchilar deb ataladi. Kreditning asosiy vazifasi pul vositalarini

---

<sup>11</sup> Saiful Bahri Mohd Kamal, Dahlia Zawawi, Dahlan Abdullah. Entrepreneurial Orientation for Small and Medium Travel Agencies in Malaysia. *Procedia Economics and Finance*. Vol. 37, 2016, Pages 115 – 120. (<https://www.scopus.com>).

qaytarib berish sharti bilankorxonalar, tashkilotlar, tarmoqlar orasida taqsimlash vavaqtincha bo'sh pul mablag'larini samarali ishlatishdan iboratdir. Kreditni boshqa vazifasi bu haqiqiy pullarni kredit pullariga (banknotlar) va kredit operatsiyalariga (naqd pulsiz hisob-kitobga) almashtirishdan iborat. Ikkinchidan: Kredit o'zini ssuda kapitali harakati shaklida namoyon etadi. Pul yoki tovar shaklidagi ssuda qaytarilishi va to'lovli sharti bilan kreditor va zayomchi orasidagi iqtisodiy munosabatni aksettiradi. Kichik biznesda kredit bilan ta'minlash keng shakllarda tasavvur etiladi, bu yerda quyidagi kreditlar ishlatiladi: tijorat, bank, davlat, iste'molchi, xalqaro. Ularning hammasi kredit berilish muddatiga qarab qisqa muddatli (bir yilgacha), o'rta muddatli (bir yildan uchyilgacha) va uzoq muddatli (uch yildan ortiq) bo'lishi mumkin. Tijorat krediti - tovar shaklida (beriluvchi) sotuvchilar tomonidan xaridorlarga beriluvchi kredit bo'lib sotilgan tovarni qiymatini orqaroq surishdan iboratdir. Natijada hisob-kitoblar veksel yoki ochiq hisob bilan amalga oshiriladi. Birinchi holatda xaridor tovar hujjatlarini olganidan so'ng o'tkazilish sotuvchi tomonidan qo'yilgan vekselni (trattani) talaffuz etadi yoki oddiy veksel rasmiylashtiradi. Ikkinchi holatda sotuvchi xaridorning qarzi majburiyatlarini olmaydi va qarzi bo'yicha hisob ochadi. Qarzni uzish davriy to'lovlar sifatida qisqa muddatlarda (1-2 oy) amalga oshiriladi. Tijorat kreditiga bo'lgan zarurat kapitalni ishlatish va muomala vaqtini bir-biriga to'g'ri kelmasligi natijasida kelib chiqadi. Bu yerda tovarni kreditga sotish ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligiga yordamlashadi, kapitalni aylanishini tezlashishini va foydani ko'payishini ta'minlaydi. Ushbu shakldagi kredit odatda qisqa muddatli bo'ladi. Bank krediti-ishbilarmon va korxonalariga pul ssudasi ko'rinishida beriladi.

Bank ssudasi- bu korxonalar, tashkilotlarning alohida fuqarolarning vaqtincha bo'sh vositalari bo'lib bank tomonidan shartnoma asosida, ularning roziligi bilan jalb qilinadi va ssuda fondi tashkil bo'ladi. Kredit olish uchun kredit oluvchi va zayomchi tomonidan kredit shartnomasi tuziladi, u o'z ichiga quyidagilarni oladi. Kredit turi, miqdori, uning berilish tartibi va muddati, kredit berilish sharti, foiz to'lovining miqdori, bar ikkala tomon javobgarligi, kreditor va zayomchilar to'g'risidagi ma'lumotlar.

Kichik biznes taraqqiyoti uchun Davlat krediti davlat budjetidan eng muhimi zamonaviy ishbilarmonlik loyihalarini amalga oshirish bo'yicha tasdiqlangan dasturlar asosida beriladi.

Iste'mol krediti- bu kredit shaklida qarz oluvchi sifatida yuridik shaxs, qarz beruvchi sifatida kredit idorasi, korxonalar va tashkilot chiqishi mumkin. Bu kredit shakli xalqning iste'mol talabini qondirish vositasifatida xizmat qiladi va pul yoki tovar shaklida bo'lishi mumkin.

Xalqaro kredit- bu xalqaro iqtisodiy munosabatlar sohasi bo'lib, u turli davlatlar kreditorlar va qarz oluvchilari orasida ssuda berish, ishlatish va uni uzish bo'yicha foiz to'lash bilan amalga oshiriladi. Bu turdagi kredit kichik biznesni taraqqiyot toptirish uchun davlatlararo banklar va firmalar tomonidan xalqaro yordam shaklida beriladi. Xalqaro kredit o'lchami va uni berish sharti kredit beruvchi va oluvchilar o'rtasidagi kredit shartnomasida o'z aksini topadi. Firmaning nuqtayi nazarida berish va ta'minlashda quyidagi kreditlar bo'lishi mumkin: Tovar, valuta, ta'minlangan (tovar, tijorat hujjatlari bilan va boshqa qiymatlar bilan) va ta'min etilmagan (bank) kreditlar. Qarz oluvchilari bo'yicha kreditlar shaxsiy, davlat va moliyaviy bo'lishi mumkin.

Kreditning asosiy shartli hisob-kitob turi bo'lib (to'lash muddati uzaytirilgan hisob) firma krediti, veksel (hisobli) va faktoring hisoblanadi.

Firma krediti- bu kredit berish shaklida mol beruvchi va sotuvchi to'lash muddati uzaytirilgan kreditni xaridorga beradi. Bu kabi kredit shaklining birdan-bir misoli mahsulotni iste'molchiga avans berishdir, avans beruvchiga shartnomaga qo'l qo'yilgandan so'ng o'tkaziladi.

Veksel krediti - bu vekselni bank tomonidan sotib olish, (hisobli) veksel egasidan to'lash muddati kelmasdan sotib olishdir, ya'ni veksel egasi bankdan muddatidan ilgari vekselda ko'rsatilgan pul miqdorini, tijorat to'lovlarini, hisob to'lovini va boshqa xarajatlarni ayirgandan keyingisini oladi.

Faktoring- bu aylanuvchi vositalarni kredit bilan ta'minlashda o'rtada turuvchining faoliyati turidir. O'rtada turuvchi kompaniya (bank) ma'lum to'lov evaziga ishbilarmonlar tarkibidan xaridorlardan uning hisobiga olinadigan pul


mablag'ini olish huquqiga ega bo'ladi (debitorlik qarzini inkassaga qo'shish huquqi). Shu bilan birga o'rtada turuvchi mijozning aylanuvchi vositasini kredit bilan ta'minlaydi va uning kredit va valuta tavakkalchiligini o'z zimmasiga oladi. O'rtada turuvchi tovar sotuvchining o'zaro munosabatlari faktoring bo'yicha shartnoma bilan tartibga solinadi.

Ochiq hisob bo'yicha kredit bilan ta'minlash- bu sotuvchini doimiy xaridoriga ta'min etmasdanva tez foiz to'lamasdan to'lov muddati uzaytirilgan shakldagi kreditidir. Sotuvchi xaridorga tovarni uning manzilgohiga tovar taqsimlash hujjatlari bilan qarz miqdorini xaridor nomiga ochilgan debet hisobiga o'tkazadi. Xaridor shartnomada qurilgan muddatlarda o'z qarzini ochiq hisob bo'yicha uzib boradi.

Overdraft - qisqa muddatli kreditlash shakli bo'lib banklar amaliyotida ishlatiladi. U Angliyada paydo bo'ladi. Overdraftning mazmuni shundan iboratki, odatda bankning ishonchli mijoziga ma'lum chegarada cheklar bilan qarz to'lash huquqi beriladi. Bu kabi operatsiya natijasida manfiy balans bunyod bo'ladi, ya'ni debitorlik saldosi - (mijozni bankka qarzi). Bank va mijoz o'zaro shartnoma tuzib unda overdraftning eng katta miqdori, kredit berish sharti, uni qaytarish tartibi va overdraft uchun foiz miqdori belgilanadi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, bozor munosabatlari rivojlanib borishi bilan, kichik biznes korxonalarini moliya munosabatlarining tarkibi ham yanada o'zgarib boradi. Shuning uchun kichik biznes taraqqiyoti jarayonida uning moliyaviy faoliyati tarkibiy qismidagi o'zgarishlarni tabiiy bir hol sifatida qarash lozim.

Kichik biznes taraqqiyoti va moliya munosabatlarini takomillashtirish o'zaro bog'liq muammolardandir. Iqtisodiyotning turli mulk va xo'jalik yuritish shakllaridan keng foydalanishga o'tishi, xususiy tadbirkorlik va kichik biznesning taraqqiyoti bilan moliya munosabatlari ham bozor talablari asosida rivojlanishi uchun muhim turtki oldi. Shu bilan birga, moliya munosabatlari kichik biznes taraqqiyotini rag'batlantirishning muhim dastaklariga egadir. Yuqoridagilardan kelib chiqib, kichik biznes korxonalarini moliyalashtirishning turli xil manbalarini quyidagi rasm holida tasvirlash mumkin (1.1-rasm).



**1.1-rasm. Kichik biznes korxonalarini moliyalashtirish manbalari<sup>12</sup>**

Bu narsa shu bilan bog'liqki, kichik biznes tizimi ichida mukammal taqsimot tizimining yaratilishi natijasida markazlashgan va rezerv fondlarining tashkil etilishi orqali kengaytirilgan takror ishlab chiqarish imkoniyatlarining yanada mustahkamlanishiga erishish hamda turli soliq imtiyozlarining qo'llanilishi maqsadida kichik biznes kelgusi taraqqiyoti uchun qulay iqtisodiy sharoitlar yaratiladi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning aholini ish bilan band etishi va o'rta sinfni shakllantirishi kabi xususiyatlari xorijiy iqtisodiy adabiyotlarda batafsil

<sup>12</sup> Ma'lumotlar asosida talaba tomonidan tayyorlandi.

yoritilgan. Rivojlangan mamlakatlar tajribasidan ma'lumki, kichik korxonalar iqtisodiy rivojlanish, ilmiy-texnika ixtirolarini, aholining talabini qondirish uchun qo'llashda istiqbollidir. Boshqarish sohasida kichik korxonalarda eng kam xarajat qilinishi bilan birga mulk haqiqiy egasining qo'lida bo'lib, undan foydalanish, ko'paytirish doimo yaxshi natijalarga olib kelgan.

Shu munosabat bilan kichik va xususiy biznesni har tomonlama rivojlantirish zarur. Ularni tashkil etish, ro'yxatga olish va moliyalashtirish masalalarida qulay shart-sharoitlar yaratish kerak. Kichik biznes sub'ektlarining to'la erkinligini ta'minlash va ular faoliyatini rag'batlantirish lozim.

### **1.3. O'zbekiston iqtisodiyotida kichik biznesning o'rni va ahamiyati**

O'zbekistonda ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini barpo etishning asosiy maqsadlaridan biri mamlakatda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik shakllarini ustuvor rivojlantirishdan iborat. Bu maqsadni amalga oshirish uchun iqtisodiy islohotlar o'tkazildi, uning rolini oshirish uchun yirik institutsional asoslar yaratildi. Tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish va uni kafolatlovchi huquqiy-me'yoriy hujjatlar, tadbirkorlarga ko'maklashuvchi nodavlat tashkilotlar, korxonalar shular jumlasiga kiradi. O'zbekistonda xususiy tadbirkorlik va kichik biznes korxonalarini majmuini tashkil etish muvaffaqiyatli bormoqda.

Kichik biznes faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar davlatga bog'liq bo'lmagan holda, ya'ni katta kapital mablag'larsiz o'zlari ish joylarini joriy etishlari, hozirgi davrda bizda vaqtinchalik mavjud bo'lgan tovarlar tanqisligini kamaytirishlari va, hattoki, bu tanqislikni butunlay yo'qotishlari mumkin. Hozirgi jamiyatimizda kichik korxonalar faoliyatini ayrim kishilarning extiyojlarini qondirish sari yo'naltirish zarur. Bu narsa maishiy xizmat ko'rsatish hamda xalq iste'moli tovarlari ishlab chiqarish sohalarida yaqqol ko'rinmoqda. Kichik korxonalar texnologiya yangiliklarini joriy etishda ham g'oyat katta ahamiyatga ega.

Kichik korxonalar ilmiy-texnika taraqqiyoti sharoitida sanoatning etakchi sohalarini yangi texnologiyalarga o'tishda tobora o'z o'rnini topib bormoqda. Ular yangi fikrlar va ishlab chiqarishni takomillashtirish, yangi axborot texnologiyalarini joriy qilish bilan ish jarayonini ta'minlovchi butun tizimni asosiy bog'lovchilik sifatini o'zlarida namoyon etmoqdalar.

Bugungi kunga kelib, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari mamlakatimiz iqtisodiyotining barcha jabhalarida, mashinasozlik mahsulotlari ishlab chiqarishda, xalq iste'moli mollarini, qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishda hamda boshqa sohalarda faoliyat ko'rsatmoqda.

Tadbirkorlik yo'nalishini kapitalizatsiya qilish orqali firmalar biznes hamkorlari bilan loyihalarni amalga oshirishda yuqori tendentsiyani rivojlantiradi. Hamkorlik yo'li bilan olingan resurslar yangi mahsulotni ishlab chiqish va bozorning ta'sirchanligi kabi qobiliyatlarni yaratishi mumkin. Natijada, firmalar ichida ishlab chiqilgan qobiliyatlar raqobatbardosh ustunlikni va ish faoliyatini oshiradi.<sup>13</sup> Kichik korxonalar ishlab chiqargan mahsulot davlat korxonalarida ishlab chiqarilgan mahsulotlardan sifati jihatidan qolishmasligi va, hatto, ayrim hollarda ulardan yuqori turishi bilan ajralib turadi. Respublikamizdagi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatining 60-70 foizi bevosita ishlab chiqarish bilan uzviy bog'langan, ular fermerlar, dehqonlar, sanoatchilar va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlovchilar va hokazolardir.

Xususiy tadbirkorlik, kichik biznesni jadal rivojlantirish asosida mulkdorlar sinfini shakllantirish, tegishli institutlar tizimini tashkil etish, kichik va xususiy tadbirkorlik faoliyati sohasiga kredit resurslarini keng jalb qilish va xorijiy sarmoyalar olib kirish uchun maqbul sharoit yaratish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998 yil 9 apreldagi «Xususiy tadbirkorlik, kichik va o'rta biznesni rivojlantirishni yanada rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida»gi

---

<sup>13</sup> Saiful Bahri Mohd Kamal, Dahlia Zawawi, Dahlan Abdullah. Entrepreneurial Orientation for Small and Medium Travel Agencies in Malaysia. *Procedia Economics and Finance*. Vol. 37, 2016, Pages 115 – 120. (<https://www.scopus.com>).



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003 yil 30 avgustda PF-3305-sonli Farmoni qabul qilindi. Mazkur Farmonga asosan «o'rta korxonalar» tushunchasi bekor qilindi va 2004 yil 1 yanvardan boshlab quyidagilar kichik biznes sub'ektlari hisoblanadi:

- yakka tartibdagi tadbirkorlar;
- ishlab chiqarish tarmoqlarida band bo'lgan xodimlarning o'rtacha yillik soni 20 kishidan, xizmat ko'rsatish sohasi va boshqa ishlab chiqarishga aloqador bo'lmagan tarmoqlarda 10 kishidan, ulgurji, chakana savdo va umumiy ovqatlanish sohasida 5 kishidan oshmagan mikrofirmalar.

Quyidagi tarmoqlarda band bo'lgan xodimlarning o'rtacha yillik soni:

- engil va oziq-ovqat sanoti, metallga ishlov berish va asbobsozlik, yog'ochni qayta ishlash va mebel sanoati hamda qurilish materiallari sanoatida – 100 kishidan;

- mashinasozlik, metallurgiya, yoqilg'i-energetika va kimyo sanoati, qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish va qayta ishlash, qurilish va boshqa sanoat- ishlab chiqarish sohalarida – 50 kishidan;

- fan, ilmiy xizmat ko'rsatish, transport, aloqa, xizmat ko'rsatish sohalarida (sug'urta kompaniyalaridan tashqari), savdo va umumiy ovqatlannish hamda boshqa noishlab chiqarish sohalarida – 25 kishidan oshmagan kichik korxonalar.

Kichik korxonalar yirik kompaniyalarga nisbatan ular bozor sharoitiga tez moslashadilar hamda ishlab chiqargan mahsulotlarini bozorda muvaffaqiyatli o'tishini ta'minlashda bir qancha ustunliklarga ega. Chunki, kichik korxonalar o'z faoliyatlarini tor ishlab chiqarish dasturlariga, ilg'or texnologiyaga, kam turkumli ilm-fan talab qiladigan mahsulotlar chiqarishga tezda moslaydilar hamda bozor asoslarini tez o'zlashtirib boradilar.

Milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligi iqtisodiy faoliyat jarayonlari va uning natijalarini aks ettiruvchi ko'rsatkichlarda kichik biznes ulushining yuqori bo'lishiga ham bog'liq ekanligi shubhasizdir.

Kam xarajat hisobiga yangi ish o'rinlari yaratish imkoniyati, yirik biznes kirib bora olmaydigan bozor segmentlarini egallay olish qobiliyati, ayniqsa, xizmat ko'rsatish sohasida va uncha katta bo'lmagan mahalliy resurs bazalarini o'zlashtirishda juda qulay tashkiliy shakl ekanligi kichik biznesni rivojlantirishning ahamiyati beqiyosligini ko'rsatadi. Shu sababli ham kichik biznesni jadal rivojlantirish masalasi mahsulot ishlab chiqarishni mahalliyashtirish, xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish va shuningdek, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish masalalari bilan chambarchas bog'langan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash borasidagi qator farmon va qarorlari, xususan, 2015 yil 15 maydagi «Xususiy mulk, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni ishonchli himoya qilishni ta'minlash, ularni jadal rivojlantirish yo'lidagi to'siqlarni bartaraf etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-4725-sonli Farmoniga muvofiq, iqtisodiyotni liberallashtirish, biznes yuritish shart-sharoitlarini yanada engillashtirish, qulay ishbilarmonlik muhitini shakllantirish, tadbirkorlikni rivojlantirish yo'lidagi ortiqcha to'siq va g'ovlarni bartaraf etish bo'yicha keskin va ta'sirchan chora-tadbirlarning amalga oshirilishi sohaning yanada rivojlanishiga zamin va turtki bo'lmoqda.

Jumladan, xususiy mulkni, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni ishonchli himoya qilishni ta'minlash yuzasidan qabul qilingan chora-tadbirlar dasturlarining izchil amalga oshirilishi natijasida 2016 yilda 55,7 ming ta yangi korxonalar tashkil etilib, shundan 26,9 mingtasi kichik tadbirkorlik (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) subyektlaridir.

2017 yil davomida 32 mingga yaqin yoki 2016 yilga qaraganda 18 foizga ko'p yangi kichik biznes subyektlari davlat ro'yxatidan o'tkazilib, o'z faoliyatini boshladi. Hamkorlik yo'li bilan olingan resurslar yangi mahsulotni ishlab chiqish va bozorning ta'sirchanligi kabi qobiliyatlarni yaratishi mumkin. Natijada, firmalar

ichida ishlab chiqilgan qobiliyatlar raqobatbardosh ustunlikni va ish faoliyatini oshiradi.<sup>14</sup>

Umuman olganda, mazkur yo'nalishda olib borilayotgan samarali islohotlar natijasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasining Kichik tadbirkorlik subyektlarining mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi hissasi 56,9 foizgacha, sanoatda esa 45 foizgacha oshdi. Hozirgi kunga kelib iqtisodiyotda ish bilan band aholining 78 foizi mazkur sohada mehnat qilmoqda.

2016 yilda mamlakatimiz tashqi iqtisodiy faoliyati jahon iqtisodiyotida, shu jumladan, asosiy savdo hamkorlarimiz hisoblangan davlatlarda kuzatilayotgan nobarqaror moliviy-iqtisodiy vaziyatlar, shuningdek, tashqi bozorlarda asosiy xomashyo tovarlari narxlarining pasayishi ta'sirida yuzaga kelgan noqulay raqobat sharoitlariga qaramasdan, 2016 yil yakunlariga ko'ra tashqi savdo aylanmasi qariyb 24,7 mlrd. AQSH dollarini tashkil etib, 2015 yilga nisbatan 1,0 foizga kamaydi. Tashqi savdo balansining ijobiy saldosi 453,6 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Bu esa mamlakatimiz to'lov balansi ijobiyligini ta'minlab, oltin-valyuta zaxiralarining oshishiga xizmat qildi.

2017 yilda O'zbekiston iqtisodiy rivojlanishining asosi bo'lgan biznes yuritish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik uchun xorijiy investitsiyalarni jalb etishga qaratilgan qator tizimli chora-tadbirlar amalga oshirildi.

2016 yil oktyabr oyida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning «Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta'minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi tadbirkorlik subyektlari faoliyatini rejadan tashqari va muqobil tekshirishlarning barcha turlarini bekor qilish orqali yanada qulay ishbilarmonlik muhitini yaratishga qaratilgan Farmoni qabul qilindi. Ushbu hujjatda asosiy e'tibor kichik va xususiy korxonalarni jadal modernizatsiya qilish va ularning eksport faoliyatini

---

<sup>14</sup> Saiful Bahri Mohd Kamal, Dahlia Zawawi, Dahlan Abdullah. Entrepreneurial Orientation for Small and Medium Travel Agencies in Malaysia. *Procedia Economics and Finance*. Vol. 37, 2016, Pages 115 – 120. (<https://www.scopus.com>).

rag'batlantirishni ta'minlash bo'yicha amaliy chora-tadbirlarga qaratilgan bo'lib, bu tarmoqlar va hududlar iqtisodiy rivojlanishining hamda aholi bandligini ta'minlash-ning muhim yo'nalishi bo'lishi lozim.

Xususiy mulk va kichik biznes manfaatlarini ishonchli himoya qilish bo'yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar 2017 yilda ushbu sohaning barqaror rivojlanishi uchun imkon yaratdi.

2017 yil davomida YAHMda kichik tadbirkorlik subyektlarining yuqori o'sish sur'ati Jizzax (1-chorakdagi 61,6%dan yil yakunida 80,3%ga), Namangan (68,2%dan 80,3%ga), Samarqand (67,7%dan 78%ga) shuningdek, Surxondaryo, Xorazm, Sir-daryo, Buxoro va Andijon viloyatlarida qayd etildi.

2017 yilda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar 6 barobardan zi-yodga o'sib, I chorakdagi 3235,9 mlrd.so'mdan yil yakuni bo'yicha 19963,2 mlrd.so'mgacha o'sdi va respublika bo'yicha o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmining 40,3%ini yoki o'tgan yilga nisbatan o'sish 122,9%ni tashkil etdi.

2017 yil yakuniga ko'ra, KTdagi bandlar soni 10392,5 ming kishini tashkil etib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga (10178,9 ming kishi) nisbatan 102,1% ni tashkil etdi. Iqtisodiyotdagi jami bandlar tarkibida KTdagi bandlar-ning ulushi 78,1%ni tashkil etdi. KTning individual sektorida – 8212,1 ming kishi (2015 yilga nisbatan o'sish 3,3 f.b.), kichik korxonalar va mikrofirmalarda – 2180,4 ming kishi mehnat qilmoqda. KTning xususiy sektori hissasiga 9573,5 ming kishi yoki kichik biznesda band bo'lganlarning 92,1%i to'g'ri kelmoqda.

Hukumat tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari uchun yaratilgan qulayliklar va imtiyozlar tufayli, yangi tashkil etilgan subyektlar soni sezilarli ortdi.

2017 yil davomida KT tomonidan ishlab chiqarilayotgan sanoat mahsulotlarining barqaror o'sishi kuzatildi. I chorakda ulushi 37,3% va o'sish sur'ati 118,0%ni, II chorakda ulushi 41,9% va o'sish sur'ati 120,1%ni, III chorakda ulushi 43,8% va o'sish sur'ati 118,4%ni tashkil etdi. 2016 yil yakunlari bo'yicha 50020,8 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, kichik biznesning respublika umumiy sanoatidagi ulushi 45,0%ni (2015 yilda 38,9%),

o'sish sur'ati esa 116,2%ni tashkil etdi. Umumiy sanoat mahsulotining 48,2%i (2015 yilda 44,6%) xususiy sektor tomonidan ishlab chiqarildi. 2016 yilda kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlarining hajmi 20677,7 mlrd.so'mni, o'sish sur'ati esa o'tgan yilga nisbatan 115,6%ni (2015 yilda 114,4%) tashkil etdi. Respublika qurilish ishlari umumiy hajmida kichik biznesning ulushi 2015 yildagi 68,4%dan 70,7%ga etdi. Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan 9843,1 mlrd.so'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, ulushi 33,7%ni tashkil etdi.

2017 yilda kichik korxonalar va mikrofirmalarning chakana savdo aylanmasi o'tgan yilga nisbatan 117,7%ga ortib, 78867,4 mlrd.so'mni tashkil etdi hamda respublika umumiy savdo aylanmasining 89,6%i, shu jumladan 20,2%i kichik korxonalar va mikrofirmalarga va 69,4%i yakka tartibdagi tadbirkorlarga to'g'ri keldi. Kichik biznes chakana savdo aylanmasining o'sish sur'ati va respublika hajmidagi ulushining o'sishi bo'yicha 2016 yil choraklik dinamikasi barqarorligi bilan ajralib turdi. Respublika savdo aylanmasida kichik biznesning yuqori ulushi – respublika aholisini yil davomida mahsulotlar va tovarlar bilan ta'minlaydigan xususiy hamda individual sektorning qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash sohasidagi ulushi ortishi bilan izohlanadi.

2017 yilda kichik biznes subyektlari tomonidan aholiga ko'rsatilgan pullik xizmatlar hajmi 55057,6 mlrd.so'mni yoki respublika umumiy hajmidagi ulushi 60,5%ni (2015 yilda 50,8%) va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati 115,7%ni tashkil etdi.

2017 yilda kichik biznes mahsulotlari eksporti 3588,5 mln. AQSH dollarini yoki respublika eksporti umumiy hajmining 28,6%ini (2015 yilda 27,0%) tashkil etdi. Xususiy sektorning eksportdagi ulushi 3,8%ga teng bo'ldi. Kichik biznes import hajmi 5655,9 mln.AQSH dollarini yoki umumiy import hajmining 46,7%ini (2015 yilda 44,2%), shu bilan birga xususiy sektorning ulushi 12,2%ni tashkil etdi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni moliyaviy qo'llab-quvvatlashni kengaytirishga qaratilgan chora-tadbirlarning amalga oshirilishi ko'rsatilayotgan moliyaviy xizmatlar, jumladan, ajratilayotgan kreditlar hajmining

jadal sur'atlarda oshishida o'z aksini topmoqda.

Mamlakatimizda barqaror ijtimoiy-iqtisodiy o'sishni ta'minlashda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining o'rni beqiyosdir. Xususan, ularning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi muttasil oshib borib, 2017 yil yakunlari bo'yicha 56,9 foizni tashkil etdi.

Bunda ko'rsatilayotgan moliyaviy xizmatlar, jumladan, ajratilayotgan kreditlar hajmining jadal sur'atlarda oshishi ham muhim omil bo'lmoqda.

2017 yilda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga ajratilgan kreditlar miqdori 2016 yilga nisbatan 1,3 barobardan ziyodga oshib, qariyb 15,9 trln. so'mni, shundan mikrokreditlar hajmi 1,3 barobarga ortib, 3,3 trln. so'mdan ortiqni tashkil etdi.

Xususan, oilaviy tadbirkorlik va hunarmandchilikni rivojlantirish uchun 367,2 mlrd. so'm, xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirish uchun 1 647,0 mlrd. so'm, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalariga 2 752,6 mlrd. so'm, nooziq-ovqat iste'mol mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalariga 2 993,0 mlrd. so'm, kasb-hunar kollejlari bitiruvchilarining biznes loyihalarini moliyalashtirish uchun 362,1 mlrd. so'm miqdorida kredit mablag'lari ajratildi.

## **I bob bo'yicha xulosa**

Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatining nazariy, tashkiliy va huquqiy asoslariga bag'ishlangan 1-bob bo'yicha quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Kichik biznes va tadbirkorlik sub'ektlari bu - mavjud qonunlar doirasida, o'zi va jamiyat manfaati uchun, aqliy va jismoniy qobiliyatiga tayanadigan, xususiy mol-mulki va jamg'armasiga ega bo'lgan, bozor uchun turli mahsulotlar ishlab chiqaruvchi va xizmatlar ko'rsatuvchi, foyda ko'rishni mo'ljallovchi, jismoniy yoki yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan yoki ega bo'lmagan tadbirkor, ishbilarmon, ijtimoiy-iqtisodiy hayotning barcha soha va tarmoqlarida, raqobatli bozorda iqtisodiy nafli xatti - harakatlarni amalga oshiruvchi sub'ektlardir. Ularning tarkibi – yakka mehnat faoliyati,

mikrofirma, kichik korxonalar, dehqon-fermer xo'jaliklari, oilaviy tadbirkorlar, kasanachilardan iborat bo'lishi mumkin.

2. O'zbekistonda ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini barpo etishning asosiy maqsadlaridan biri mamlakatda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik shakllarini ustuvor rivojlantirishdan iborat. Bu maqsadni amalga oshirish uchun iqtisodiy islohotlar o'tkazildi, uning rolini oshirish uchun yirik institutsional asoslar yaratildi. Tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish va uni kafolatlovchi huquqiy-me'yoriy hujjatlar, tadbirkorlarga ko'maklashuvchi nodavlat tashkilotlar, korxonalar shular jumlasiga kiradi. O'zbekistonda xususiy tadbirkorlik va kichik biznes korxonalari majmuini tashkil etish muvaffaqiyatli bormoqda.

3. Tadbirkorlikni rivojlantirish, ishbilarmonlikni huquqiy himoya qilish masalasi mamlakatimizda izchil amalga oshirilayotgan islohotlarning eng asosiy yo'nalishlaridan biridir. Keyingi yillarda ushbu soha jadal sur'atlar bilan ravnaq topib, aholi bandligi va turmush farovonligini ta'minlashda etakchi kuchga aylandi.

4. Bugungi kunda davlat boshqaruvi organlarining xususiy tadbirkorlik faoliyatiga aralashuvini yanada ko'proq cheklash, davlatning nazorat va boshqaruv vakolatini keskin kamaytirish, tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish yo'lidagi to'siqlarni bartaraf qilish bo'yicha islohotlar davom etmoqda. Shubhasiz, ushbu jarayonda litsenziyalar va turli ruxsatnomalar berishni keskin qisqartirish, amaldagi ro'yxatga olish, biznes yuritish uchun litsenziya va ruxsatnoma berish tizimini yana bir bor chuqur tahlil qilish, yangi korxonalar va biznes tashkilotlarini ro'yxatga olishning aksariyat hollarda xabardor etish tizimiga o'tish kabi yangiliklarning joriy qilingani biznes sub'ektlarini tashkil etishni soddalashtirish va ularning yanada erkin faoliyat yuritishlarini ta'minlashda muhim omil bo'lmoqda.

## **II BOB. O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUB'EKTLARINING INVESTITSIYA LOYIHALARINI MOLIYALASHTIRISH AMALIYOTI TAHLILI**

### **2.1. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining moliyalashtirish amaliyotini holati tahlili**

Kichik biznesni rivojlantirish va moliyaviy qo'llab-quvvatlash mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lgani holda uning taraqqiyotini ta'minlash, milliy iqtisodiyotdagi salmog'ini oshirish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Ularni taraqqiy toptirishda mazkur sub'ektlarning bugungi kun talabi darajasidagi zamonaviy texnika va texnologiyalardan samarali foydalanish darajasiga tayanilishiga erishish lozim. "Buning uchun ularni rivojlantirishning yangi manbalari, ham chet el investitsiyalarini keng jalb qilish hisobiga, ham ichki manbalar, bank kreditlari hisobiga doimo kashf etib borilishi darkor"<sup>15</sup>. Bu siyosatning asosiy maqsadi, nafaqat, kichik biznes sub'ektlarining miqdor jihatdan o'sishini ta'minlash, balki ularning faoliyat samaradorligini oshirishdan iboratdir. Mazkur jarayonlarda ularni imtiyozli asoslarda kreditlash eng asosiy bo'g'in bo'lib maydonga chiqadi. Bunda kichik biznes sub'ektlarini kreditlash markazida tijorat banklarining ular bilan o'zaro manfaatli hamkorlikka asoslangan munosabatlari o'rin egallaydi. Mazkur munosabatlarning uzoq muddatli jarayonlar negiziga asoslanishi kichik biznes investitsiya loyihalarini kreditlash tizimi shakllanishiga imkon beradi.

Bugungi kunda davlat tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash tizimi tarkibida kichik biznes vakillari o'z faoliyatlarini tashkil etish, rivojlantirish va kengaytirish uchun imtiyozli kreditlardan foydalanishda quyidagi imkoniyatlarga egalar:

---

<sup>15</sup> Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – T.: "O'zbekiston", 1997. 198-b.



1. Imtiyozli kreditlash maxsus jamg'armasi<sup>16</sup>. Tijorat banklari o'z foydasining 25 foizga qadar miqdorini maxsus jamg'armaga ajratish yo'li bilan banklarda ishlab chiqarish mikrofirmalarini, kichik korxonalarni, dehqon va fermer xo'jaliklarini, yuqori texnologik va innovatsiya loyihalarini imtiyoli foiz stavkalari asosida moliyalashtiradi. Bunda kreditlar loyihaning o'z-o'zini qoplay olish muddatlariga bog'liq ravishda: xom ashyo va materiallar, yarim tayyor mahsulotlar, ishlab chiqarish zaxiralarini xarid qilish uchun zarur bo'lgan aylanma mablag'larni to'ldirishga beriladigan kreditlar 1 yil muddatgacha; fermer xo'jaliklari tomonidan qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini tashkil etish hamda yuridik shaxs bo'lgan dehqon xo'jaliklariga aylanma mablag'larni to'ldirish uchun beriladigan kreditlar 2 yil muddatgacha; kichik tadbirkorlikning barcha sub'ektlariga, shu jumladan, yuridik shaxs bo'lgan fermer va dehqon xo'jaliklariga investitsiya loyihalarini moliyalash uchun beriladigan kreditlar 5 yil muddatgacha ajratiladi. Tijorat banklari investitsion maqsadlar uchun kredit berishda imtiyozli kreditlash davr (nisbatan past foiz stavkalar bilan uzoqroq muddatga)larini belgilashi mumkin. Bunda kreditlardan foydalanganlik uchun foiz stavkasi miqdori Markaziy bankning amaldagi qayta moliyalash stavkasining 50 foizidan ortiq bo'lmagan miqdorda belgilanadi. Shu bilan birga kichik biznes vakillari kredit shartnomalari bo'yicha majburiyatlarni ta'minlash tariqasida o'z mol-mulkidan, shu jumladan, ashyolari va mulkiy huquqlaridan, shuningdek o'zi olgan kreditni to'lay olmaslik riski sug'urtasi to'g'risidagi sug'urta polisidan foydalanishi mumkin.

2. Byudjetdan tashqari jamg'armalarning kredit liniyasi. Byudjetdan tashqari jamg'armalarning kredit liniyalari hisobidan ishlab chiqarishni kengaytirish va faoliyatini rivojlantirish maqsadlari uchun mikrokreditlar O'zbekiston Respublikasi rezidentlari bo'lgan kichik biznes sub'ektlariga berilishi mumkin. Byudjetdan tashqari jamg'armalar kredit liniyalari hisobidan kreditlar kichik

---

<sup>16</sup> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 19 maydagi 195-sonli "Tijorat banklarining kichik tadbirkorlikni rivojlantirishda qatnashishini rag'batlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori asosida tasdiqlangan "Tijorat banklari tomonidan kichik tadbirkorlik sub'ektlariga, dehqon va fermer xo'jaliklariga imtiyozli kredit berish maxsus jamg'armasi hisobidan kredit berish tartibi to'g'risida"gi Nizom.

biznes sub'ektlariga ularning namunaviy yoki yakka tartibda ishlab chiqilgan investitsiya loyihalariga hamda tovarlar ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohasi bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarini moliyalashga beriladi.

Aholi bandligini ta'minlashning xududiy va maqsadli dasturlariga xizmat ko'rsatuvchi banklar bilan kelishilgan holda kiritilgan yuridik shaxslarga Ish bilan ta'minlashga ko'maklashish davlat jamg'armasi mablag'lari hisobidan yangi ish o'rinlarini yaratishga maqsadli kreditlar 50000 AQSh dollarining so'mdagi ekvivalentigacha bo'lgan miqdorda beriladi. Byudjetdan tashqari jamg'armalar mablag'lari hisobidan ishlab chiqarishni kengaytirish va faoliyatini rivojlantirish maqsadlari uchun kichik biznes sub'ektlarini mikrokreditlash bank marjasi qo'shib hisoblanadigan imtiyozli foiz stavkasi asosida amalga oshiriladi. Ushbu mikrokreditlarga doir imtiyozli foiz stavkasi Markaziy bankning amaldagi qayta moliyalash stavkasiga nisbatan qat'iy foizlarda belgilanadi.

Byudjetdan tashqari jamg'armalarning kredit liniyalari hisobidan beriladigan ushbu mikrokreditlar uchun imtiyozli foiz stavkasi kreditlanayotgan investitsiya loyihalarning yo'nalishidan kelib chiqqan holda quyidagi miqdorlarda belgilanadi:

- dehqon va fermer xo'jaliklarini rivojlantirish va kengaytirish, shu jumladan, qishloq xo'jaligi texnikasini sotib olish, fermerlik inshootlarini qurish, chorvachilik, parrandachilikni rivojlantirish uchun mikrokreditlar Markaziy bankning amaldagi qayta moliyalash stavkasining 1/3 qismi miqdorida;

- bevosita ishlab chiqarish sohasi, ya'ni mahsulotlar ishlab chiqarish, xom ashyo va materiallarni tubdan qayta ishlash, hunarmandchilikni rivojlantirish, kasanachilik mehnatini tashkil etish, binokorlik materiallari ishlab chiqarish va qurilish maqsadlari uchun mikrokreditlar Markaziy bankning amaldagi qayta moliyalash stavkasining 40 foizi miqdorida;

- aholiga tibbiy xizmat ko'rsatishni tashkil etish, aholiga maishiy xizmat ko'rsatish, turizm sohasini rivojlantirish maqsadlari uchun mikrokreditlar Markaziy bankning amaldagi qayta moliyalash stavkasining 45 foizi miqdorida.

Aholi bandligini ta'minlashning hududiy va maqsadli dasturlariga kiritilgan yuridik shaxslarga ish bilan ta'minlashga ko'maklashish davlat jamg'armasi

mablag'lari xisobidan 10 000 AQSh dollarining so'mdagi ekvivalentidan ortiq miqdordagi kreditlar Markaziy bankning amaldagi qayta moliyalash stavkasining 50 foizi miqdorida.

Budjetdan tashqari jamg'armalar kredit liniyalari hisobidan berilayotgan ushbu mikrokreditlar bo'yicha bank marjasi imtiyozli foiz stavkasining 50 foizi miqdorida belgilanadi. Bunda bank marjasi o'rnatilgan imtiyozli foiz stavkalari miqdorining oshishiga olib kelmaydi.

Bankdlikka ko'maklashish jamg'armasi kredit liniyasi hisobidan 2011 yilda tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatini moliyalash uchun 14,7 mlrd. so'm miqdoridagi mablag'lar yo'naltirildi va 2010 yilga nisbatan 2,8 mlrd. so'm ko'p mablag' ajratildi. 2015-yilda esa dehqon va fermer xo'jaliklarini qo'llab-quvvatlash jamg'armasining kredit liniyasi hisobidan dehqon-fermer xo'jaliklarini moliyalash uchun tijorat banklari tomonidan 506,0 mln. So'm miqdoridagi mablag'lar yo'naltirildi<sup>17</sup>.

Shuningdek, kichik biznes vakillari ish bilan ta'minlashga ko'maklashuvchi davlat jamg'armasi kredit liniyalari hisobidan oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish va kengaytirish uchun mikrokredit olishlari mumkin.

3. Mikrokreditbankning dastlabki sarmoyani shakllantirishga yo'naltirilgan kredit liniyasi. Dastlabki (boshlang'ich) sarmoyani shakllantirishga mikrokreditlar sobiq "Biznes-Fond"ga tegishli kredit liniyalari mablag'larini Mikrokreditbankka qaytarilishi natijasida shakllanadigan imtiyozli kredit resurslari hamda Dehqon va fermer xo'jaliklarini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi mablag'lari hisobidan beriladi. Dastlabki (boshlang'ich) sarmoyani shakllantirishga mikrokreditlar faqat yangidan ochilgan va davlat ro'yxatidan o'tkazilgan kundan 6 oydan oshmagan davr mobaynida kredit olish uchun tegishli xizmat ko'rsatuvchi banka buyurtma bergan yuridik shaxs maqomini olib faoliyat ko'rsatayotgan dehqon xo'jaliklari, mikrofirmalar, kichik korxonalar va fermer xo'jaliklarining faoliyatini boshlash uchun aylanma mablag'larni shakllantirishga, investitsiya loyihasining texnik-

---

<sup>17</sup> Госкомимущество Республики Узбекистан. «Приватизация и развитие частного сектора экономики». Информационно-аналитический бюллетен за 2015. - С. 44.

iqtisodiy asoslanishini ishlab chiqishga, asbob-uskunalar sotib olish uchun beriladi.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi qo'shma korxonalar ustav kapitali shakllangandan keyin tashkil etilishlari munosabati bilan ularga ushbu mikrokreditlar berilmaydi.

Dastlabki (boshlang'ich) sarmoyani shakllantirishga mikrokreditlar yuridik shaxs maqomini olib faoliyat ko'rsatayotgan dehqon xo'jaliklari va mikrofirmalarga eng kam oylik ish haqining 150 baravarigacha miqdorda hamda kichik korxonalar va fermer xo'jaliklariga eng kam oylik ish haqining 300 baravarigacha bo'lgan miqdorda beriladi.

Dastlabki (boshlang'ich) sarmoyani shakllantirishga mikrokreditlardan foydalanganlik uchun foiz miqdori Markaziy bankning amaldagi qayta moliyalash stavkasining 1/6 qismini tashkil etadi. Mazkur mikrokreditlar uchun hisoblangan foizlar dastlabki 12 oy davomida tijorat banklari daromad (foyda) solig'i hisoblash bazasiga kiritilmaydi.

4. Tijorat banklarida mavjud barcha moliyalash manbalari hisobidan ajratiladigan mikrokerditlar va mikrolizing xizmatlari. Kichik biznes sub'ektlarini mikrokreditlash va mikrolizing xizmatlarini ko'rsatish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006 yil 6 maydagi 78-son qaroriga muvofiq "Mikrokreditlar berish va mikrolizing xizmatlari ko'rsatish tartibi to'g'risi"dagi vaqtinchalik Nizom talablari asosida amalga oshiriladi. Tadbirkorlik sub'ektlariga mikrokreditlar berish va mikrolizing xizmatlari ko'rsatish xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish, yakka tartibdagi mehnat faoliyatini, oilaviy biznesni va kasanachilikni rivojlantirish yo'li bilan yangi ish o'rinlari yaratish, aholi keng qatlamlarining, shu jumladan qishloq joylarda, moliyaviy resurslardan foydalana olishini ta'minlash maqsadida amalga oshiriladi.

Foydalanish yo'nalishlariga ko'ra mikrokreditlar: boshlang'ich (start) sarmoyasini shakllantirish uchun; biznesni rivojlantirishga (kengaytirishga) va aylanma mablag'larni to'ldirishga beriladi.

Boshlang'ich (start) sarmoyasini shakllantirish uchun mikro kredit yiliga 5 foiz stavka bo'yicha 18 oy muddatgacha eng kam oylik ish xaqining 50 baravarigacha miqdorda - yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan tadbirkorlik sub'ektlari uchun eng kam oylik ish haqining 100 baravarigacha miqdorda; mikrofirmalar va dexqon xo'jaliklari uchun (yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan) eng kam oylik ish xaqining 200 baravarigacha miqdorda – fermer xo'jaliklari uchun beriladi.

Yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik sub'ektlariga mikro kredit boshlang'ich (start) sarmoyasini shakllantirish uchun ular kredit olish uchun davlat ro'yxatidan o'tkazilgan kundan boshlab 6 oy mobaynida buyurtma taqdim etilganda beriladi.

Mikro kreditlar biznesni rivojlantirish (kengaytirish) va aylanma mablag'larni to'ldirish uchun kichik tadbirkorlik sub'ektlariga (mikrofirmalar, kichik korxonalar, dexqon va fermer xo'jaliklariga) O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining qayta moliyalashtirish stavkasidan yuqori bo'lmagan foiz stavkasi bo'yicha, 24 oy muddatgacha, eng kam oylik ish xaqining 500 baravarigacha miqdorda beriladi.

Imtiyozli mikrolizing bo'yicha xizmatlar kichik biznes sub'ektlariga 3 yilgacha muddatgacha, Markaziy bank qayta moliyalashtirish stavkasining 50 foizidan yuqori bo'lmagan stavka bo'yicha, eng kam oylik ish haqining 2000 baravarigacha miqdorda ko'rsatiladi.

Yuqoridagilar bilan birga kichik biznes vakillarining o'z faoliyatini boshlashi uchun imtiyozli kreditga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishda kredit uyushmalari ham muhim o'zni egallaydi. Ko'ngillilik asosida shaxslar mablag'larini birlashtirish, bunda yuridik va jismoniy shaxslar o'zlarining pul mablag'larini qadrsizlanishidan saqlash va katta bo'lmagan foizlar evaziga kredit olishga intilishi hozirgi iqtisodiy sharoitda muhim ahamiyatga ega. Shu bois kredit uyushmalarini rivojlantirishda davlat tomonidan berilayotgan e'tiborni kuchaytirish, ularga ma'lum imtiyozlar berish ularning rivojlanish istiqbollari ochib beradi. Shuningdek, Markaziy bank

Boshqaruvining 2004 yil 1 martdagi 563 va 564-sonli<sup>18</sup> qarorlari bilan tasdiqlangan Nizomlar asosida fermer xo'jaliklarini kreditlashni bozor tamoyillari asosida yo'lga qo'yish, ularning ishlab chiqarish uchun aylanma mablag'larga bo'lgan ehtiyojini qondirish hamda garov ta'minoti masalasini ijobiy hal qilish maqsadida fermer xo'jaliklarining er uchastkasiga bo'lgan ijara huquqini garovga qo'ygan holda tijorat banklaridan kredit olish tartibi amaliyotga joriy qilindi. Bu tadbir orqali endigina faoliyat boshlayotgan, moliyaviy jihatdan zaif bo'lgan fermerlarda kredit olish uchun garov muammosini hal qilishga dastlabki qadam tashlandi. Bunday ijobiy o'zgarishlar kichik biznes faoliyatini rivojlantirish va moliyaviy qo'llab-quvvatlashga faol ko'maklashadi.

Xususiy tadbirkorlarning xomashyo resurslaridan foydalanish imkoniyati, birinchi navbatda, bunday mahsulotlarni birja va yarmarka savdolarida sotish hajmini ko'paytirish hisobidan sezilarli ravishda kengaytirildi. Masalan, 2015-yil kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub`ektlari tomonidan 3,3 trillion so'mlik xomashyo va materiallar sotib olindi, o'sish 6,5 foizni tashkil etdi. Bitimlarning 95 foizi birja savdolariga to'g'ri keldi. Shu bilan birga, tadbirkorlik sub`ektlari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarni birja orqali sotish hajmi 18 foizga o'sib, 1,4 trillion so'mga etdi. Birjada tuzilgan bitimlarning umumiy hajmida tadbirkorlar va kichik biznes sub`ektlarining hissasi o'tgan yilda 66 foizni tashkil etgan bo'lsa, joriy yilda bu ko'rsatkich 8 foizga ko'tarilgani kuzatildi.<sup>19</sup>

Jahonda davom etayotgan iqtisodiy inqirozga qaramay, O'zbekistonda makroiqtisodiy barqarorlik va iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlari ta'minlanayotganligi qayd etildi. Mamlakatimiz bugungi kunda iqtisodiyoti jadal rivojlanayotgan davlatlar orasida jahonda beshinchi o'rinni egallab turganligi va bu xalqaro hamjamiyat va xalqaro moliya institutlari tomonidan munosib ravishda yuqori baholanmoqda. Joriy yilning 9 oyi yakunlari bo'yicha mamlakatning yalpi


---

<sup>18</sup> "Tijorat banklari tomonidan fermer xo'jaliklariga bo'lg'usi hosilni garovga olgan holda kredit berish tartibi to'g'risida"gi hamda "Tijorat banklari tomonidan fermer xo'jaliklarining er uchastkasini ijaraga olish huquqini garovga olgan holda kreditlash tartibi to'g'risida"gi Nizomlar.

<sup>19</sup> Karimov I.A. 2015 yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo'l ochib berish-ustivor vazifamizdir. Toshkent-"O'zbekiston"-2015y. 6-bet.

ichki mahsuloti 8,0 foizga o'sdi. Davlat byudjeti profitsit bilan ijro etildi. Inflatsiya darajasi prognoz parametrlardan oshmadi.

Ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirishni rag'batlantirish va ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlashga doir kompleks chora-tadbirlarning amalga oshirilishi natijasida O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushi yil sayin oshib, 53,3 foizdan ko'proqni tashkil etmoqda. So'nggi yillarda iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi oshib bormoqda



**2.1-rasm. O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni iqtisodiyotdagi ulushi<sup>20</sup>**


Jumladan, 2017 yilning yanvar-sentyabr oylari yakuni bo'yicha kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning sanoatdagi ulushi 45 foizgacha qishloq xo'jaligida – 98,5 foizgacha, chakana savdo aylanmasida – 86,8 foizgacha, xizmatlar sohasida – 54,7 foizgacha, pullik xizmatlar hajmida – 49,3 foizgacha, yuk tashish hajmida – 49,4 foizgacha, yo'lovchi tashish hajmida – 87,9 foizgacha va bandlikda – 78,3

<sup>20</sup> O'zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida talaba tomonidan tayyorlandi.

foizgacha o'sdi. Shu bilan birga, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining ichki investitsiya jarayonlaridagi ishtiroki ham sezilarli ravishda oshib bormoqda.

Bundan tashqari bunday yaratilgan shart-sharoitlar natijasida yildan-yilga kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning YaIMdagi ulushi sezilarli ravishda ortib bormoqda.

Buni biz yuqoridagi rasm ma'lumotlaridan ham bilib olishimiz mumkin. Bunda oxirgi 4 yillik natijalar sarhisob qilingan. Rasm ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning YaIMdagi ulushi 2014-yilda 55,8 foiz, 2015-yilda 56,1 foiz, 2016-yilda 56,6 foiz va 2017 yilda 56,9 foizga yetgan. Bu 15 yil ichida uning ulushi deyarli 56,0 foizga oshib ketdi. Bu esa kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka berilayotgan e'tiborning yorqin samarasidir.



## 2.2-rasm. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning YAIMdagi ulushi<sup>21</sup>

Shuningdek, 2016-yilning yarim yilligida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari soni 15,2 mingtaga yetdi, bu esa o'tgan yilgiga nisbatan 6,3 foiz ko'p deganidir. Respublika hududlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlariga asosan tijorat banklari tomonidan 2,0 trln. so'm yoki 2016 yilga

<sup>21</sup> 2000-2015-yillar yakunlari asosida talaba tomonidan tayyorlandi.



nisbatan 25 foizga ko'p miqdorda kreditlar ajratildi. Shuningdek, 2017 yil davomida 32 mingga yaqin yoki 2016 yilga qaraganda 18 foizga ko'p yangi kichik biznes sub'ektlari davlat ro'yxatidan o'tkazilib, o'z faoliyatini boshladi.

## **2.2. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining faol investitsiya loyihalarini moliyalashtirish va o'zlashtirilayotgan xorijiy investitsiyalar tahlili**

Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, mamlakatimizda xom ashyo resurslarini chuqur qayta ishlash asosida raqobatbardosh mahsulotlar yaratuvchi yuqori texnologiyali va zamonaviy ishlab chiqarishlarni tashkil etishga yo'naltirilgan faol investitsiya siyosati olib borilishi natijasida kapital qo'yilmalar hajmining o'sish sur'ati o'tgan yilga nisbatan 9,6 %ni tashkil qildi.

Investitsiyalar yuqori o'sish sur'atining asosiy omillari quyidagilar hisoblanadi:<sup>22</sup>

- xorijiy investitsiyalarni rag'batlantirish borasidagi chora-tadbirlar amalga oshirilishi tufayli, 2017 yilda 3,65 mlrd.dollarlik xorijiy investitsiya va kreditlar o'zlashtirildi, o'sish sur'ati o'tgan yilga nisbatan 11,3 %ni tashkil qildi. Bu mablag'larning 2,5 mlrd.dollardan ortig'i to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalardir. Natijada, o'zlashtirilgan investitsiyalar umumiy hajmida xorijiy sarmoyalar ulushi 20,1 %dan 21,9 %ga etdi;

- iqtisodiyotning strategik tarmoqlarida Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi bilan birgalikda moliyalashtiriladigan loyihalarning amalga oshirilishi natijasida, joriy yilda o'zlashtirilgan mablag'lar hajmi 788,4 mln.dollarni tashkil etdi. Ushbu mablag'larning asosiy qismi «Navoiyazot» AJ.da ammiak va korbamid ishlab chiqarishni qurish, azot kislotasi ishlab chiqarishni tashkil etish, Navoi-Konimex-Misken temir yo'l liniyasini qurish, «O'zbekiston xavo yo'llari» AJ xavo kemalari parkini bir xillashtirish va yangilashni tashkil etish, Toshkent shahrida mehmonxona majmuini qurish kabi loyihalarni amalga oshirish doirasida

---

<sup>22</sup> O'zbekiston iqtisodiyoti. Axborot-tahliliy byulleten 2017 yil yanvar-dekabr.T.:Iqtisodiy tadqiqotlar markazi.2018, 6,7-bb.

zamonaviy texnologik uskunalarni xarid qilish hamda asosiy vositalarni yangilashga yo'naltirildi;

- aholining turmush shart-sharoitlari va sifatini yaxshilash hamda tadbirkorlik faoliyatidan oladigan daromadlari o'sishini rag'batlantirish bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirilishi tufayli, aholi mablag'lari hisobiga amalga oshiriladigan investitsiyalar 29,4 %ga o'sdi. Natijada, kapital qo'yilmalar tarkibida o'zlashtirilgan aholi mablag'lari ulushi o'tgan yilgi 21,2 %dan 24,5 %gacha ortdi;

- hududiy korxonalar tomonidan investitsiyalarga yuqori talabning shakllantirilishi tufayli, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish hududiy dasturlari doirasida hisobot davrida qariyb 28,5 ming loyiha amalga oshirildi. Shundan, sanoat sohasida 6 mingdan ziyod, xususan ishlab chiqarish quvvatini kengaytirishni o'z ichiga olgan 4,5 mingdan ziyod loyiha bo'yicha yangi quvvatlarni ishga tushirish ko'zda tutilgan. Shuningdek, 194 korxonada yangi faoliyat turlarini yo'lga qo'yish, 336 korxonani modernizatsiya qilish va 988 korxonaning quvvatlarini kengaytirish bo'yicha loyihalar amalga oshirildi. Ulardan, oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish bo'yicha 1,7 mingdan ziyod loyiha, qurilish materiallari tarmog'ida 1,9 mingta, to'qimachilik va charm-poyabzal mahsulotlari tarmog'ida qariyb 1,3 mingta, mebel va qog'oz tarmog'ida 456 ta, kimyo va neft-kimyo mahsulotlari tarmog'ida 391 ta, mashinasozlik va elektrotexnika tarmog'ida 219 ta, farmatsevtikada 97 ta loyiha amalga oshirildi;

- yangi ishlab chiqarish quvvatlari hamda ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilma yangi ob'ektlarini qurish hisobiga qurilish-montaj ishlari ko'lamini kengaytirilishi tufayli, kapital qo'yilmalar umumiy hajmida qurilish-montaj ishlari ulushi 2017 yilda 57,6 %ni, yangi qurilish uchun yo'naltirilgan investitsiyalar ulushi esa 61,2 % ni tashkil etdi.

Mamlakatimiz hududlarining barqaror iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash respublikamizda yuritilayotgan iqtisodiy siyosatning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lmoqda. Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlanishi, turmush sharoitlarining yaxshilanishi ham bevosita ular iqtisodiyotining rivojlanishi bilan bog'liq. 2017 yilda o'zlashtirilgan investitsiyalarni hududlar kesimida tahlil

qiladigan bo'lsak, investitsiyalarning asosiy hajmi Toshkent shahri, Toshkent, Qashqadaryo va Buxoro viloyatlariga (54 %) to'g'ri kelmoqda (2.1-jadval).

## 2.1-jadval

### Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi (yakunga nisbatan %da)<sup>23</sup>

Hududlar	2015	2016	2017
<b>O'zbekiston Respublikasi</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
Qoraqalpog'iston Respublikasi	11,4	14,1	7,5
<i>viloyatlar:</i>			
Andijon	4,2	4,0	3,8
Buxoro	9,8	9,5	11,8
Jizzax	3,0	2,5	2,5
Qashqadaryo	11,7	12,8	12,8
Navoiy	4,6	4,2	5,7
Namangan	4,8	4,7	4,8
Samarqand	6,5	6,8	6,8
Surxondaryo	4,1	3,8	3,8
Sirdaryo	2,7	2,5	2,2
Toshkent	10,8	9,6	7,7
Farg'ona	5,8	5,1	4,7
Xorazm	3,6	3,4	2,9
Toshkent sh.	16,7	16,6	21,7

Neftegaz sohasidagi loyihalar va yirik investitsiya loyihalarini hisobga olmaganda, hududlar kesimida investitsiyalar hajmi bo'yicha eng kichik ko'rsatkichlar Buxoro (1,4 %), Jizzax (1,7 %) va Navoiy (1,9 %) viloyatlarida kuzatilmoqda. So'nggi ikki hududda erkin iqtisodiy zonalar tashkil etilganiga qaramasdan ularga kiritilgan investitsiyalar pastligicha qolmoqda.<sup>24</sup>

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi «Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom

<sup>23</sup> O'zbekiston iqtisodiyoti. Axborot-tahliliy byulleten 2017 yil yanvar-dekabr.T.:Iqtisodiy tadqiqotlar markazi.2018, 20-b.

<sup>24</sup> O'zbekiston iqtisodiyoti. Axborot-tahliliy byulleten 2017 yil yanvar-dekabr.T.:Iqtisodiy tadqiqotlar markazi.2018, 8-b.

va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak» nomli ma'ruzalarida ham «Navoiy» erkin iqtisodiy zonasi faoliyati tanqidiy tahlil qilinib, quyidagi ma'lumotlar keltirildi. Jumladan, «...O'tgan 8 yil mobaynida bu erda atigi 24 ta loyiha amalga oshirilib, ularda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar ulushi juda past va atigi 900 ta odam ishga joylashtirilgan. O'tgan yili esa mahsulot ishlab chiqarish hajmi 24 foizga pasaygan...».<sup>25</sup>

O'zlashtirilgan xorijiy investitsiyalar va kreditlarga nazar soladigan bo'lsak, 2017 yilda ularning qiymati 10829,2 mlrd.so'mni tashkil qildi. Natijada, o'zlashtirilgan investitsiyalar umumiy hajmida xorijiy sarmoyalar ulushi 20,1 %dan 21,9 %ga etdi (2.2-jadval).

## 2.2-jadval

### Chet el investitsiyalari va kreditlarini o'zlashtirish dinamikasi <sup>26</sup>

Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	2014	2015	2016
Xorijiy investitsiyalar va kreditlar	mlrd.so'm	6818,1	8182,7	10829,2
Xorijiy investitsiyalarning umumiy investitsiyalar hajmidagi ulushi	%	20,2	20,1	21,9
To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar	mlrd.so'm	5339,1	6273,1	7569,0
To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning umumiy investitsiyalar hajmidagi ulushi	%	15,8	15,4	15,3
To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning xorijiy investitsiyalar umumiy hajmidagi ulushi	%	78,3	76,7	69,9

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning umumiy investitsiyalar hajmidagi ulushi so'nggi uch yil ichida pasayish tendentsiyasiga ega bo'lganligini jadval ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkin. Jumladan, ushbu ko'rsatkich 2014 yilda 15,8 %, 2015 yilda 15,4 % va 2016 yilda esa 15,3 % ni tashkil etdi. Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek, «...Xorijiy investitsiyalarni, birinchi navbatda,

<sup>25</sup> Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak.//Halq so'zi.16.01.2017.

<sup>26</sup> O'zbekiston iqtisodiyoti. Axborot-tahliliy byulleten 2016 yil yanvar-dekabr.T.:Iqtisodiy tadqiqotlar markazi.2017, 21-b.

to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish bo'yicha ishlar qanday ahvolda ekani tanqidiy tahlilni talab etadi...».<sup>27</sup>

Respublikaning 10 ta, xususan, Qorovulbozor, G'ijduvon, Shofirkon, Boysun, Qiziriq, Baxmal, Zafarobod, Mirishkor, Sardoba va Xazarasp tumanlarida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar mavjud emas. Shuningdek, 2017 yil boshiga xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi 185 ta korxonalar faoliyat ko'rsatmayotgan bo'lib, shundan 183 tasi hududlar bo'ysinuvidagi, jumladan, Toshkent shahri (61), Toshkent (59), Samarqand (17), Namangan (11), Buxoro (5) va Jizzax (5) viloyatlariga tegishli korxonalardir.<sup>28</sup>

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, «... Mahalliy hokimlarning aybi bilan mamlakatimiz hududlariga xorijiy investitsiyalarni jalb etish o'ta qoniqarsiz ahvolda qolmoqda.

Birgina misol keltiraman. Qashqadaryo, Namangan, Surxondaryo viloyatlarida atigi 18 ta loyihani amalga oshirishga 55 million dollar yoki har bir loyihaga o'rtacha 3 million dollardan xorijiy investitsiya jalb etilgan.

Ana shu hududlarning sanoati va infratuzilmasini rivojlantirish bo'yicha mamlakat Prezidenti tomonidan tasdiqlangan maxsus dasturlar amalga oshirilayotgan bir sharoitda bu albatta etarli emas...».<sup>29</sup>

Darhaqiqat, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish bo'yicha etarlicha salohiyat mavjud bo'lib, u ishlatilmasdan qolmoqda. Aholi jon boshiga xorijiy investitsiyalarni jalb etish ko'rsatkichi 2016 yilda 121,8 dollarni, jumladan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar bo'yicha 79,4 dollarni tashkil etib, bu ko'rsatkichlar rivojlanayotgan mamlakatlarda o'rtacha 129,0 dollarni, o'tish iqtisodiyoti mamlakatlarida 160,0 dollarni tashkil etmoqda.<sup>30</sup>

---

<sup>27</sup> Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak.//Halq so'zi.16.01.2017.

<sup>28</sup> O'zbekiston iqtisodiyoti. Axborot-tahliliy byulleten 2016 yil yanvar-dekabr.T.:Iqtisodiy tadqiqotlar markazi.2017, 8-b.

<sup>29</sup>Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak.//Halq so'zi.16.01.2017.

<sup>30</sup> O'zbekiston iqtisodiyoti. Axborot-tahliliy byulleten 2016 yil yanvar-dekabr.T.:Iqtisodiy tadqiqotlar markazi.2017, 8-b.

2017 yilda xorijiy investitsiyalarning tarmoq tuzilmasida xom neft va tabiiy gaz qazib olishni (45 %) o'z ichiga oladigan tog'-kon sanoati 45,4 % ni tashkil etdi (2.3-jadval).

### 2.3-jadval

#### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha chet el investitsiyalarining taqsimlanishi (%) <sup>31</sup>

Iqtisodiy faoliyat turlari	2016	
	mlrd.so'm ekvivalentid a	Yakunga nisbatan %da
1	2	3
<b>Jami</b>	<b>49476,8</b>	<b>100,0</b>
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	123,0	1,1
Tog'-kon sanoati	4911,3	45,4
Ishlab-chiqarish sanoati	1400,1	12,9
Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash	1304,9	12,0
Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish	239,1	2,2
Qurilish	151,0	1,4
Ulgurji va chakana savdo; motorli transport vositalari va mototsikllarni ta'mirlash	181,0	1,7
Tashish va saqlash	1393,9	12,9
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	3,4	0,03
Axborot va aloqa	754,4	7,0
Moliyaviy va sug'urta faoliyati	0,2	0,002
Professional, ilmiy va texnik faoliyat	3,3	0,03
Ta'lim	103,0	1,0
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	167,7	1,5
San'at, ko'ngil ochish va dam olish	0,1	0,001
Boshqa turdagi xizmatlar ko'rsatish	92,8	0,9

Shuningdek, xorijiy sarmoyadorlar tomonidan ishlab chiqarish sanoati (12,9 %), tashish va saqlash (12,9 %), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash (12,0 %), axborot va aloqa (7 %) hamda iqtisodiyotning boshqa bir qator sohalariga investitsiyalar kiritilganligini ko'rishimiz mumkin.

<sup>31</sup> O'zbekiston iqtisodiyoti. Axborot-tahliliy byulleten 2016 yil yanvar-dekabr.T.:Iqtisodiy tadqiqotlar markazi.2017, 20-b.

### **2.3. Kichik biznesni xalqaro kredit tashkilotlari liniyalari orqali kreditlash mexanizmining tahlili**

Milliy iqtisodiyotning raqobatdoshligi iqtisodiy faoliyat jarayonlari va uning natijalarini aks ettiruvchi ko`rsatkichlarda kichik biznes ulushining yuqori bo`lishiga ham bog`liq ekanligi shubhasizdir.

Kam xarajat hisobiga yangi ish o`rinlari yaratish imkoniyati, yirik biznes kirib bora olmaydigan bozor sigmentlarini egallay olish qobiliyati, ayniqsa, xizmat ko`ratish sohasida va uncha katta bo`lmagan mahalliy resurs bazalarini o`zlashtirishda juda qulay tashkiliy shakl ekanligi kichik biznesni rivojlantirishning ahamiyati beqiyosligini ko`rsatadi. Shu sababli ham kichik biznesni jadal rivojlantirish masalasi mahsulot ishlab chiqarishni mahalliyashtirish, xizmat ko`rsatish sohasini rivojlantirish va shuningdek, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish masalalari bilan chambarchas bog`langan. Kichik biznes subyektlarini moliyaviy qo`llab-quvvatlashning manbalaridan biri bu - xalqaro moliya tashkilotlari va chet el banklari tomonidan ajratilayotgan mablag`lar hisobidan ochilayotgan kredit liniyalari hisoblanadi. Respublikamiz iqtisodiyotida amalga oshirilayotgan tarkibiy o`zgarishlar yirik sarmoyalarni talab qiladi.

Hozirgi kunda O`zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishda, kichik biznes korxonalarida amalga oshirilayotgan loyihalarni moliyalashtirishda xorijiy kredit liniyalari katta ahamiyatga ega. Xorijiy kredit liniyalari hisobidan kreditlar, kichik biznes subyektlariga eksportga mo`ljallangan va import o`rnini bosuvchi mahsulotlar, qishloq xo`jalik mahsulotlarini va boshqa xom ashyo resurslarini qayta ishlashni hamda boshqa kundalik ehtiyojdagi xalq ite'moli tovarlarini ishlab chiqarishni nazarda tutadigan investitsion loyihalarga beriladi. Chunki eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish uchun kichik biznes korxonalarini ishlab chiqarishga eng yangi texnika va texnologiyalarni joriy etishi zarur.

Tijorat banklari tomonidan xorijiy kredit liniyalarini ushbu jabhaga jalb

etilishi orqali, investitsion loyihalarni moliyalashtirish tezlashtirilmoqda.

Xorijiy kredit liniyalari asosan Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy Bank, Asakabank, Agrobank, Ipak Yo`li banki, Mikrocreditbank, Ipoteka bank va boshqa banklar tomonidan jalb qilingan va o`zlashtirilmoqda. Yuqoridagi banklar tomonidan hozirgi kunda Yevropa Taraqqiyot va tiklanish banki, Xalqaro moliya korporatsiyasi, Osiyo taraqqiyot banki, Germaniyaning tiklanish va taraqqiyot banki, OPEK fondi hamda Italiyaning "Nationale de lavoro" banklari kredit liniyalari jalb qilingan.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari loyihalarini moliyalashtirish uchun 2017 yilda ajratilgan xorijiy kredit liniyalari va kreditlash shartlari:

**2.4-jadval**

**Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy bankida xorijiy kredit liniyalarining kreditlash shartlari<sup>32</sup>**

<b>№</b>	<b>Xorijiy kredit liniyalari nomi</b>	<b>Xorijiy kredit liniyalari hisobidan ajratiladigan kreditlar bo'yicha asosiy shartlar</b>
1	<b>Xitoy taraqqiyot banki</b>	Foiz stavkasi -LIBOR + marja (3,5%) + bank marjasi Kreditning maksimal miqdori – 1,0 mln. AQSH doll. Kreditning minimal miqdori – 100 ming AQSH doll. Kreditning maksimal muddati – 7 yilgacha (1,5 yilgacha maksimal imtiyozli davr bilan)
2	<b>Koreya Eksim Bank</b>	Foiz stavkasi - xorijiy bank foiz stavkasi (har bir mijoz bo'yicha alohida belgilanadi) + bank marjasi Kreditning minimal miqdori –100 ming AQSH doll. Kreditning maksimal muddati – 5 yilgacha (2,5 yilgacha maksimal imtiyozli davr bilan)
3	<b>Islom taraqqiyot banki</b>	Foiz stavkasi -LIBOR + marja (2,5%) + bank marjasi Kreditning maksimal miqdori – 5 mln. AQSH doll. Kreditning minimal miqdori – 100 ming AQSH doll. Kreditning maksimal muddati – 10 yilgacha (3 yilgacha maksimal imtiyozli davr bilan)
4	<b>Landesbank Berlin</b>	Foiz stavkasi - EVRIBOR + xorijiy bank foiz stavkasi (har bir mijoz bo'yicha alohida belgilanadi) + bank marjasi Kreditning minimal miqdori –250 ming evro Kreditning maksimal muddati – 5 yilgacha (1,5 yilgacha maksimal imtiyozli davr bilan)

<sup>32</sup> www.nbu.uz ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi



Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, keltirilgan barcha xorijiy kredit liniyalari bo'yicha kreditlashning minimal miqdori 100 ming AQSh dollarini tashkil etadi. Bundan tashqari, ushbu kredit liniyalari bo'yicha mamlakatimiz kichik biznesini rag'batlantirish maqsadida imtiyozli davr bilan berilishini guvohi bo'lib turibmiz. Xususan, Xitoy taraqqiyot banki tomonidan 1.5 yilgacha, Koreya Eksim bank tomonidan 2.5 yilgacha, Islom taraqqiyot banki tomonidan 3 yilgacha va Germaniyaning Lendesbank tomonidan 1.5 yilgacha imtiyozli davr belgilangan. Bu esa mamalkatimiz kichik biznes sub'yektlarini xorijiy valyutada kredit olishga yanada qiziqishini uyg'otadi.

**2.5-jadval**

**Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki orqali Yevropa Tiklash va  
Taraqqiyot banki (YTTB) kichik biznes sub'yektlarini kreditlash shartlari<sup>33</sup>**

<b>Kreditlarning maqsadli ishlatilishi</b>	Kichik biznes korxonalarini qo'llab-quvvatlash, import asbob-uskunalar va texnologiyalarni sotib olishni moliyalash. Xizmat ko'rsatish sohasini alohida moliyalash.
<b>Qarzoluvchi</b>	O'zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq, xususiy va kichik korxonalar
<b>Kreditlash davri</b>	Maksimal 7 yil, 2 yildan ortiq bo'lmagan imtiyozli davr
<b>Kreditning maksimal summasi</b>	5 mln AQSH dollarigacha, biroq loyiha boshlang'ich qiymatining 75% dan oshiq bo'lmagan miqdorida.
<b>Kreditning minimal summasi</b>	100 ming AQSH dollari
<b>O'z mablag'lari</b>	Loyihaboshlang'ich qiymatining 25% dan kam bo'lmagan miqdorida
<b>Garov ta'minoti</b>	Kredit summasining 120% dan kam bo'lmagan miqdorida
<b>Kredit uchun foizlar</b>	LIBORning foiz stavkasiga asoslangan foiz + YTTB marjasi + O'zR banki marjasi
<b>Kreditni tashkil etish uchun bir martalik vositachilik haqi</b>	Barqaror valutadagi kredit summasining 1.5% miqdorida
<b>Majburiyat uchun vositachilik haqi</b>	Barqaror valutadagi kreditning foydalanilmagan summasidan yiliga 0.5% hisobida.
<b>Kreditni boshqaris huchun vositachilik xaqi</b>	To'lov kunidagi joriy kurs bo'yicha mahalliy va yutadagi kredit summasidan yiliga 0.15% hisobida.
<b>Kreditning to'lov muddati</b>	Har 6 oyda

Yuqoridagi jadval ma'lumotlari ko'rsatadiki, YTTB kredit liniyasining asosiy

<sup>33</sup> YTTB yillik hisobot ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi

mezonlari O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklarining kreditlash mezonlari bilan o‘zaro muvofiq hisoblanadi. Ya'ni kreditlashning eng asosiy shartlari deyarli bir xil, faqatgina kredit qaytarish jadvali har 6 oyda so‘ndirilishi jihatidan farq qiladi. Bu asosan yirik ko‘lamdagi loyihalar uchun mo‘ljallangan. Bundan tashqari, kredit uchun to‘lanadigan foiz stavkasi ham bir muncha farqlanadi, ya'ni kredit ajratilish vaqtidagi LIBOR stavkasiga qarab o‘rnatiladi. Lekin uning qulaylik tomoni shundaki, umumiy marjalarni hisob-kitobga kiritilganda ham foizlar mamlakatimiz tijorat banklari, ayniqsa, xususiy banklar tomonidan belgilangan foiz stavkalariga nisbatan past bo‘ladi.

## 2.6-jadval

### XSRIK kredit liniyasi bo‘yicha kichik biznes subyektlarini kreditlash shartlari<sup>34</sup>

Kreditlash shartlari	Qishloq qurilish bankda	Ipak Yo‘li bankda
<b>Kreditni yo‘naltirish maqsadi</b>	Kichik biznesni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash	Ishlab chiqarishni rivojlantirish
<b>Kreditning minimal va maksimal summasi</b>	100 ming AQSH dollaridan 2 mln. AQSH dollarigacha	100 ming AQSH dollaridan 500 ming AQSH dollarigacha
<b>Kreditlashning maksimal muddati</b>	5 yilgacha	5 yilgacha
<b>Kredit foiz stavkasi</b>	yillik 12%	(8,5% XSRIK foiz stavkasi) + (2,8% bank marjasi)
<b>Loyiha bo‘yicha imtiyozli davr</b>	6 oygacha	12 oygacha
<b>Bankka to‘lanadigan bir martalik komission to‘lov</b>	kredit summasidan 1%	kredit summasidan 0,3%
<b>Kichik biznes subyektlarining loyihada o‘z mablag‘i bilan ishtiroki</b>	yangi tashkil qilingan korxonalar uchun 60%; faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar uchun 50%	yangi tashkil qilingan korxonalar uchun 60%; faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar uchun 50%

Yuqoridagi jadvaldan ko‘rishimiz mumkinki, XSRIK (Xususiy sektorni rivojlantirish Islom korporatsiyasi) kredit liniyasi hisobidan kreditlar mamlakatimiz tijorat banklari tomonidan qulay shartlar asosida, shuningdek, qarz

<sup>34</sup> internet ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

oluvchining loyihani moliyalashtirishda majburiy ishtiroki bilan ajratiladi. Boshqa kredit liniyalaridan asosiy farq shundaki, YTTB kredit liniyasi hisobidan moliyalashtiriladigan loyihalarda qarz oluvchilar nisbatan yuqori ulushda o'z mablag'i hisobidan ishtirok etishlari talab qilinadi.

Bu ikki bankdagi XSRIK kredit liniyasi bo'yicha kreditlashning eng asosiy farqi qo'yilgan maqsadidir. Ya'ni Qishloq qurilish bankda kreditlash maqsadoi kichik biznes subyektlarini mliyaviy qo'llab quvvatlash bo'lsa, Ipak yo'li bankida kichik biznes subyektlarining ishlab chiqarishini rivojlantirishdir.

## 2.7-jadval

### OTB kredit liniyasi bo'yicha kichik biznes subyektlarini kreditlash shartlari<sup>35</sup>

<b>Kreditlash shartlari</b>	<b>Asaka bankda</b>	<b>Hamkorbankda</b>
<b>Kredit liniya miqdori</b>	10,0 ming AQSH dollarining milliy valyutadagi ekvivalentigacha;	40 000 AQSh dollarining milliy valyutadagi ekvivalentigacha
<b>Kreditlash maqsadi</b>	tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish, rivojlantirish va kengaytirish	Aylanma mablag'larni to'ldirish; Investitsion loyixalarni moliyalashtirish.
<b>Kredit muddati</b>	3-yilgacha	Aylanma mablag'larni to'ldirish uchun - 18 oygacha; Asosiy vositalar sotib olish uchun - 36 oygacha.
<b>Kredit foiz stavkasi</b>	Banklararo depozitlarning 6 oylik o'rtacha tortilgan foiz stavkasi (UZIBOR) hamda «Asaka» bank marjasi;	Shartnomaga asosan
<b>Valyuta turi</b>	Milliy valyuta so'm	Milliy valyuta so'm

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki Asaka hamda Hamkorbank tijorat banklari OTB kredit liniyasi bo'yicha kichik biznes subyektlarini kreditlashda ular o'rtasida farqlar mavjud. Jumladan, Asaka tijorat banki tomonidan kredit mazkur kredit liniyasi orqali tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish, rivojlantirish va kengaytirish maqsadida berilsa, Hamkorbank tomonidan esa aylanma mablag'larni to'ldirish va investitsion loyixalarni moliyalashtirish maqsadlarida beriladi. Bundan

<sup>35</sup> www.asaka.uz va www.hamkorbank.uz ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi

ko`rinadiki, maqsadlari farq qilganligi sababli kreditlash miqdori hamda muddati o`rtasida ham farq bo`lishu tabiiydir. Bundan tashqari kredit foiz stavkasida ham bir-biridan farqini ko`rishimiz mumkin. Asaka tijorat banking foiz stavkasi pastroq bo`lishi mumkin agar banklararo kreditlarning foizi pasaysa agar oshsa buning aksi. Bu o'z navbatida salbiy deb baxolayman.

## 2.8-jadval

### AT Xalq banki bo'yicha Xalqaro Rivojlantirish Assotsiatsiyasi (MAR) kredit liniyasi <sup>36</sup>

<b>Xorijiy kredit liniyasi yoki grant hisobidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga kredit ajratish shartlari</b>	
<b>Kredit liniyasi mablag'larining yo'naltirish maqsadi</b>	Intensiv bog'dorchilik, sabzavotchilik va uzumchilikda ilg'or texnologiyalarni jalb qilish, qishloq xo'jaligi maxsulotlarini uzoq vaqt davomida saqlash va ularni qayta ishlash maqsadida qishloq xo'jaligi korxonalarini zamonaviy texnika va asbob uskunalar bilan ta'minlash, energiya tejamkorligiga asoslangan issiqxona xo'jaliklarini tashkil qilish bilan bog'liq loyihalarni moliyalashtirish
<b>Har bir loyiha bo'yicha ajratiladigan kreditning minimal va maksimal summasi</b>	- 50.000,0 (ellik ming) AQSh dollarigacha qisqa muddatli; - 500.000,0 (besh yuz ming) AQSh dollarigacha; - 1.000.000,0 (bir million) AQSh dollarigacha muzlatgichlar sotib olish va muzlatgichli omborxonalarni jihozlash uchun;
<b>Mazkur kredit liniya hisobidan ajratiladigan kreditning maksimal muddati</b>	Uzoq muddatli kreditlar va lizing operatsiyalari – 10 yil muddatgacha 36 oy muddatgacha imtiyozli davr bilan; Qisqa muddatli kreditlar – 18 oygacha, 9 oy muddatgacha imtiyozli davr bilan birga
<b>Loyiha bo'yicha beriladigan imtiyozli davr</b>	
<b>Ajratiladigan kredit uchun mijoz tomonidan to'lanadigan yillik foiz to'lovlari</b>	AQSh dollari miqdoriga: yillik 5,5% Milliy valyuta miqdoriga: yillik 10%
<b>Ajratilgan kredit uchun mijozning bankka to'laydigan komissiyalari:</b>	Kredit summasining 0,5% miqdorida milliy valyutada Markaziy bankning rasmiy kursi bo'yicha to'lanadi
<b>Kredit o'zlashtirilmagan kismi uchun komissiya</b>	Ajratilgan kredit summasining ishlatilmay qolgan summasidan 0,5% miqdorida milliy valyutada Markaziy bankning rasmiy kursi bo'yicha to'lanadi
<b>Boshqa shartlar</b>	Amaldagi qonun xujjatlarida keltirilgan shartlar asosida moliyalashtiriladi

Chunki kredit olayotgan mijozlarning kredit olish vaqtlari turli vaqt mobaynida amalga oshirilsa foizlar o`rtasida farqlarni namoyon bo'lishiga olib

<sup>36</sup> www.xb.uz sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi

keladi. Bu esa mijozlarning noroziligiga sabab bo`lishi mumkin.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, Xalqaro rivojlantirish assotsiatsiyasi kredit liniyasi bo'yicha kreditlash shartlarida bir qancha imtiyozlar yaratilganligini ko'rishimiz mumkin. Xususan, uzoq muddatli kredit bo'yicha imtiyozli davr 36 oy ni tashkil qilsa, qisqa muddatli kredit bo'yicha esa 9 oyni tashkil etadi. Bu albatta, kichik biznes subyektlarini imkoniyat desak, mubolag'a bo'lmaydi.

## 2.9-jadval

### Xalqaro Tiklanish va Taraqqiyot banki (MBRR) Xorijiy kredit liniyasi yoki grant hisobidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga kredit ajratish shartlari<sup>37</sup>

Kreditlash shartlari	ATB “Qishloq qurilish bank”	AT Xalq banki
<b>Kredit maqsadi</b>	Intensiv bog' va zamonaviy issiqxona tashkil etish, qishloq xo'jaligi maxsulotlarini etishtirish, qayta ishlash, qadoqlash, uzoq muddatga saqlash va sotish bilan bog'liq faoliyatlar	Meva-sabzavotchilik mahsulotlarini etishtirish, issiqxona tashkil qilish, qishloq xo'jaligida ilg'or texnologiyalarni jalb qilish, qishloq xo'jaligi maxsulotlarini uzoq vaqt davomida saqlash, qayta ishlash va ularni qadoqlash bilan bog'liq loyihalarni moliyalashtirish.
<b>Kreditning minimal va maksimal summasi</b>	- Investitsion loyihalar uchun – 2 000 000,0 AQSh dollari yoki AQSh dollari ekvivalentidan oshmagan miqdorda - Aylanma mablag'lar uchun – 200 000,0 AQSh dollari yoki AQSh dollari ekvivalentidan oshmagan miqdorda	Uzoq muddatli kreditlar va lizing operatsiyalari – 2.000.000,0 (ikki million) AQSh dollarigacha; Qisqa muddatli kreditlar (aylanma mablag'larni to'ldirish uchun) – 200.000,0 (ikki yuz ming) AQSh dollarigacha.
<b>Kredit muddati</b>	Uzoq muddatli: 120 oy Qisqa muddatli: 18 oy	Uzoq muddatli: 10 yilgacha Qisqa muddatli: 18 oy
<b>Imtiyozli davr</b>	Uzoq muddatli: 120 oy - 36 oy Qisqa muddatli: 18 oy - 9 oy	Uzoq muddatli: 10 yilgacha -36 oy Qisqa muddatli: 18 oy - 9 oy
<b>Foiz to'lovi</b>	AQSh dollari miqdoriga: yillik 5,5% Milliy valyuta miqdoriga: yillik 10%	AQSh dollari miqdoriga: yillik 5,5% Milliy valyuta miqdoriga: yillik 10%
<b>Loyihani ko'rib chiqish uchun komissiya</b>	Kreditning 1,0% miqdorida	-
<b>Kredit o'zlashtirilmagan qismi uchun komissiya</b>	AQSh dollarida yillik 3,0%, milliy valyutada yillik 4,5% miqdorida	0,5% miqdorida milliy valyutada Markaziy bankning rasmiy kursi bo'yicha to'lanadi

<sup>37</sup> www.qishloqqurilishbank.uz va www.xb.uz sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, Xalqaro Tiklanish va Taraqqiyot banki (MBRR) Xorijiy kredit liniyasi yoki grant hisobidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga kredit ajratish shartlari ATB "Qishloq qurilish bank" va AT Xalq banklarida deyarli bir xil. aksariyat shartlarni, xususan, ATB "Qishloq qurilish bank" da loyihani ko'rib chiqish uchun komissiya 1 foizni tashkil etsa, AT Xalq bankida esa ushbu komissiya ko'zd tutilmagan. Bundan ko'rinadiki AT Xalq bankida kichik biznes sub'yektlariga ATB "Qishloq qurilish bank"ka nisbatan qulaylik yaratilgan. Bundan tashqari, kredit o'zlashtirilmagan qismi uchun komissiya ATB "Qishloq qurilish bank"da AQSh dollarida yillik 3,0%, milliy valyutada yillik 4,5% miqdorida bo'lsa, AT Xalq bankida 0,5% miqdorida milliy valyutada Markaziy bankning rasmiy kursi bo'yicha to'lanadi. Bu ham AT Xalq bankida kichik biznes subyektlariga berilayotgan bir imtiyoz desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Hech shubha yo'qki, XMT va xorijiy bank tuzilmalarining kredit liniyalarini o'zlashtirish va qayta moliyalashtirish jarayonini bank tizimining mahalliy hokimiyat organlari bilan o'zaro uzviy aloqasisiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

Shundan kelib chiqib xulosa qilish mumkinki, bugungi kunda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini o'zaro manfaatli va o'zaro kafolatli tarzda kreditlash mexanizmi to'laligicha o'zini oqlamoqda.

## **II bob bo'yicha xulosa**

Xalqaro moliya tashkilotlari faoliyatining samaradorligi muayyan darajada a'zo mamlakatlarning hukumati va davlat tashkilotlari bilan bo'ladigan o'zaro munosabatga bog'liq bo'ladi. Shunday ekan, xalqaro moliya tashkilotlarining investitsion faoliyati ko'p hollarda yirik xalqaro loyihalar bo'yicha risklarni boshqarish va sug'urtalashni amalga oshiruvchi davlat tashkilotlari bilan yaqin hamkorlikni talab etadi.

Hech shubha yo'qki, XMT va xorijiy bank tuzilmalarining kredit liniyalarini o'zlashtirish va qayta moliyalashtirish jarayonini bank tizimining mahalliy hokimiyat organlari bilan o'zaro uzviy aloqasisiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

Kichik biznes subyektlarining investitsion loyihalarini moliyalashtirish uchun xalqaro moliya institutlarining imtiyozli kredit liniyalari hisobidan 206,7 mln. AQSH dollari miqdorida kreditlar ajratildi.

Respublika hududlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlariga asosan tijorat banklari tomonidan 2,0 trln. so‘m yoki 2016 yilga nisbatan 25 foizga ko‘p miqdorda kreditlar ajratildi.

Shundan kelib chiqib xulosa qilish mumkinki, bugungi kunda shularga asosan shakllangan mahalliy korxonalarimiz, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari, fermerlikni o‘zaro manfaatli va o‘zaro kafolatli tarzda kreditlash mexanizmi to‘laligicha o‘zini oqlamoqda va bu mexanizm milliy iqtisodiyotimizning raqobatbardoshligini va aholining farovonligini oshirishga xizmat qilayotir.

### **III BOB. IQTISODIYOTNI MODERNIZASIYALASH SHAROITIDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI MOLIYALASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI**

#### **3.2. O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining investitsion va ishbilarmonlik muhitini barqarorlashtirish yo'llari**

So'ngi yillarda mamlakatimizda ishbilarmonlik va investitsiya muhitini tubdan yaxshilash, jahon amaliyotida umum qabul qilingan biznesni yuritish sharoitlarini baholash mezonlari tizimini joriy etish va shu asosda mamlakatimizning xalqaro reytingini yanada oshirishni ta'minlash bo'yicha keng chora-tadbirlar kompleksi qabul qilindi.

Tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish, kredit olish, xo'jalik nizolarini ko'rib chiqish, biznesni tugatish jarayonlari sezilarli darajada soddalashtirildi va arzonlashtirildi. Mulknini ro'yxatdan o'tkazish, yer uchastkalarini ajratish, qurilishga ruxsatnomalar berish, elektr tarmoqlariga ulanishda «bir darcha» tamoyillarini ommaviy joriy etish bo'yicha ishlar jadal sur'atlarda amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov mamlakatimizni 2015 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2016 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi «Bosh maqsadimiz – mavjud qiyinchiliklarga qaramasdan, olib borayotgan islohotlarni, iqtisodiyotimizda tarkibiy o'zgarishlarni izchil davom ettirish, xususiy mulkchilik, kichik biznes va tadbirkorlikka yanada keng yo'l ochib berish hisobidan oldinga yurishdir» nomli ma'ruzalarida ta'kidlaganlaridek: «...Mamlakatimizda ishbilarmonlik muhitini yaxshilash borasida olib borayotgan ishlarimiz xalqaro iqtisodiy tashkilotlarning reytinglarida o'zining ijobiy ifodasini topmoqda. O'tgan yilning oktyabr oyida Jahon banki «Biznes yuritish» reytingini e'lon qildi. Ana shu reytingda O'zbekiston faqat bir yilning o'zida 16 pog'onaga ko'tarilib, 87-o'rinni egalladi.



Shuni alohida qayd etish kerakki, «yangi biznesni qo'llab-quvvatlash» deb ataladigan mezon bo'yicha mamlakatimiz ayni paytda jahonda 42-o'rinni, tuzilgan shartnomalar ijrosini ta'minlash bo'yicha 32-o'rinni, iqtisodiy nochor korxonalariga nisbatan qo'llanadigan bankrotlik tizimining samaradorligi bo'yicha 75-o'rinni egallab turibdi. «Kichik biznes sub'ektlariga kredit berish» deb nomlanadigan ko'rsatkich bo'yicha O'zbekiston so'nggi uch yilda 154-o'rindan 42-o'ringa ko'tarildi va o'tgan yilning o'zida reytingini 63 pozitsiyaga yaxshiladi.

Jahon banking ma'ruzasida O'zbekiston keyingi yillarda tadbirkorlik faoliyati uchun ishbilarmonlik muhitini yaxshilash sohasida eng yaxshi natijalarga erishgan dunyodagi o'nta davlat qatoridan joy olgani qayd etilgan.

Ana shu yo'nalishdagi islohotlar natijasida yalpi ichki mahsulotimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi 2000 yildagi 31 foizdan bugungi kunda 56,7 foizga etgani yoki 1,8 barobar oshganini alohida ta'kidlashni istardim. Hozirgi paytda ushbu sohada jami sanoat mahsulotlarining uchdan bir qismi, qishloq xo'jaligi mahsulotlarining 98 foizi ishlab chiqarilmoqda. Ish bilan band jami aholimizning 77 foizdan ortig'i – shunga e'tibor bering – mazkur tarmoqda mehnat qilayotgani, o'z peshona teri bilan nafaqat o'z oilasini boqayotgani, balki mamlakatimiz boyligiga boylik qo'shayotgani, avvalo, mustaqillik bizga ochib bergan imkoniyatlarning yaqqol isboti, desam, ayni haqiqatni aytgan bo'laman...».<sup>38</sup>

2016 yilda O'zbekiston iqtisodiy rivojlanishining asosi bo'lgan biznes yuritish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik uchun xorijiy investitsiyalarni jalb etishga qaratilgan qator tizimli chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Jumladan, 2016 yil 5 oktyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning «Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta'minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PF-4848-

---

<sup>38</sup> Karimov I.A. Bosh maqsadimiz – mavjud qiyinchiliklarga qaramasdan, olib borayotgan islohotlarni, iqtisodiyotimizda tarkibiy o'zgarishlarni izchil davom ettirish, xususiy mulkchilik, kichik biznes va tadbirkorlikka yanada keng yo'l ochib berish hisobidan oldinga yurishdir.//Halq so'zi.16.01.2016.

sonli qabul qilingan Farmoni, eng avvalo, xususiy mulkni huquqiy himoya qilishni yanada kuchaytirishga, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga va har tomonlama qo'llab-quvvatlashga, respublikaning investitsiyaviy jozibadorligini oshirishga yo'naltirilgan va ushbu sohada davlat siyosatining sifat jihatidan yangi darajaga o'tishidan dalolat beradi.

«Xususan, Farmon “kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka keng erkinlik berish, ularning faoliyatiga aralashuvni tubdan qisqartirish, huquqbuzarliklarning barvaqt oldi olinishini ta'minlash, ularning profilaktikasi samaradorligini oshirish va huquqbuzarliklarga yo'l qo'yilmaslik”ni eng muhim ustuvor yo'nalish va davlat organlarining birinchi darajali vazifasi sifatida mustahkamlaydi.

Farmonda tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatiga asossiz aralashishdan ishonchli huquqiy kafolatlarni ta'minlashga yo'naltirilgan davlat nazoratining printsiplial jihatdan yangi bir qator mexanizmlari belgilanmoqda.

Jumladan, 2017 yilning 1 yanvaridan boshlab quyidagi ilgari ko'rilmagan choralar joriy etiladi:

– tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatini rejadan tashqari tekshirishlarning barcha turlari bekor qilinadi, bundan yuridik shaxsning tugatilishi bilan bog'liq tekshirishlar, shuningdek, jismoniy va yuridik shaxslarning qonun hujjatlari buzilishi holatlari to'g'risidagi murojaatlari asosida faqatgina Nazorat qiluvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi Respublika kengashining qaroriga muvofiq o'tkaziladigan qisqa muddatli tekshiruvlar mustasno;

– shuningdek, tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatini, shu jumladan, jinoyat ishlari doirasidagi muqobil tekshirishlarning barcha turlari bekor qilinadi.

Respublikaning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish uchun xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi yangidan tashkil etilgan ishlab chiqarish korxonalariga besh yil mobaynida ular ro'yxatdan o'tkazilgan sanada amalda bo'lgan soliq stavkalari va boshqa majburiy to'lovlarni qo'llash huquqi beriladi.

Shuni qayd etish zarurki, ushbu imtiyoz investitsiya sifatida kiritilgan mablag'lar miqdoridan qat'i nazar xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi barcha korxonalariga tatbiq etiladi.

Farmon qoidalarini amalda ro'yobga chiqarish maqsadida tadbirkorlik faoliyatini jadal rivojlantirish, xususiy mulkchilikni har tomonlama himoya qilish va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilash borasida beshta eng ustuvor soha bo'yicha 42 ta aniq chora-tadbir amalga oshirilishini nazarda tutuvchi Kompleks chora-tadbirlar dasturi tasdiqlandi.

Soliqqa tortish tizimi va bojxona ishini takomillashtirish, respublikaning investitsiyaviy jozibadorligini va xalqaro reytingini oshirish sohasida Dasturda quyidagilarga yo'naltirilgan takliflar va normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqishga doir tadbirlar mo'ljallangan:

– valyutani tartibga solish va valyutalar kursi siyosatining ilg'or bozor mexanizmlarini, bank faoliyatini tartibga solishning zamonaviy tamoyillari va mexanizmlarini joriy etish, bank faoliyatini samarali amalga oshirishga to'sqinlik qiluvchi g'ovlarni bartaraf etish;

– soliq ma'murchiligining sifati va samaradorligini yanada yaxshilash;

– tadbirkorlik sub'ektlarining eksport kontraktlarini bojxona organlarida hisobga qo'yish to'g'risidagi talabni bekor qilish;

– huquqbuzilishlarining oldini olishning asosiy mexanizmlaridan biri va qonunga itoatkor tadbirkorlik sub'ektlarining barqaror faoliyati kafolati sifatida auditorlik tashkilotlari va soliq maslahatchilarining xizmatlar sifati uchun javobgarligini oshirish va ular tomonidan taqdim etiladigan xulosalarning ishonchliligi yuzasidan ular faoliyatining huquqiy asoslarini takomillashtirish.

Farmonning amalga oshirilishi mamlakat iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishning asosiy omili sifatida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish yo'lidagi ma'muriy g'ovlar va sun'iy to'siqlarni bartaraf etish yuzasidan O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti tomonidan belgilangan yo'lning uzviyligi va izchilligini ta'minlash imkonini beradi».<sup>39</sup>

Davlat xizmatlarini ko'rsatishning qulay mexanizmi va qog'ozbozlikning yo'qligi tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning muhim shartidir. Hozirda

---

<sup>39</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta'minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Farmoniga sharh.//Halq so'zi. 05.10.2016.

tadbirkorlarga davlat xizmatlarini ko'rsatish jarayonlarini soddalashtirishni ko'zda tutuvchi me'yoriy-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish sohasida olib borilayotgan keng ko'lamli ishlar aynan shu maqsadga qaratilgan. «O'zbekiston biznes forumi (3-bosqich)» loyihasining mutaxassislari 2016 yilda ishlab chiqilgan qonun hujjatlariga kiritilgan o'zgartirishlar yuzasidan qo'shma xulosa tayyorladilar:<sup>40</sup>

– elektr tarmoqlariga ulanish jarayoni. 2016 yilning 1 yanvaridan boshlab, tadbirkorlik sub'ektlarini elektr tarmolariga ulash tartibi soddalashib, ilgari bir qator tartib-taomillardan o'tish o'rniga, faqat 3 tartib-taomildan o'tish kifoya bo'ldi. Endilikda ob'ektni elektr tarmoqlariga ulash uchun tadbirkor tegishli arizasi va qonun tomonidan tasdiqlangan hujjatlarni «yagona darcha» markaziga taqdim etishining o'zi kifoyadir. «Yagona darcha» markaziga berilgan ariza elektr ta'minoti tashkilotiga yo'naltiriladi. «Yagona darcha» markazida olingan javob asosida tadbirkor ob'ektni elektr tarmog'iga ulash to'g'risidagi shartnomani tuzish imkoniga ega bo'ladi;

– tadbirkor tomonidan er uchastkasini olish. Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 7 oktyabrda qabul qilingan №285-sonli qaroriga muvofiq, yuridik va jismoniy shaxslarga tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun aholi punktlaridagi 1,0 gektargacha bo'lgan er uchastkalari tanlov asosida doimiy foydalanishga taqdim etiladi. Ushbu tanlovning mohiyati shundan iboratki, tadbirkor tanlov g'olibi deb aniqlanganda, er uchastkasini doimiy foydalanishga va qurilishga ruxsatnomalarni olishi uchun bor yo'g'i etti bosqichdan iborat tartibotlarni o'tishi zarur bo'ladi. Yangi Nizomda tadbirkor uchun tartibotlar muddatlari va sonini sezilarli darajada qisqartirish nazarda tutilgan. Ilgari barcha tartibotlar uchun 55 kun talab etilgan bo'lsa, bugungi kunda g'olibni aniqlashdan boshlab uchastkasiga bo'lgan huquqni davlat ro'yxatidan o'tkazishgacha bo'lgan muddat 10 ish kunidan oshmasligi lozim;

– qurilishga ruxsat berish. Qurilishga ruxsatnoma olish tartiboti ham soddalashtirilgan holda quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi.

---

<sup>40</sup> O'zbekiston iqtisodiyoti. Axborot-tahliliy byulleten 2016 yil yanvar-dekabr.T.:Iqtisodiy tadqiqotlar markazi.2017, 77-79 bb.

Tadbirkor loyihalashtirish tashkilotiga loyihalash topshirig'ini beradi va loyiha-smeta hujjatlarini tayyorlash uchun shartnoma tuzadi. Loyihalashtirish tashkiloti qurilish loyihasini ishlab chiqadi va uni mustaqil ravishda arxitektura-shaharsozlik kengashi va davlat ekspertizasi organi bilan kelishadi.

Tadbirkor loyiha-smeta hujjatlarini olganidan keyin respublikada faoliyat yuritayotgan istalgan «yagona darcha» markazlaridan biriga qurilish-montaj ishlarini amalga oshirishga ruxsatnomani olish uchun ariza topshiradi. Tadbirkor «yagona darcha» markazida qurilish-montaj ishlarini amalga oshirishga ruxsatnomani va inspeksiya tomonidan nazorat funksiyalarini amalga oshirish shartnomasini oladi.

Ob'ektlarni foydalanishga qabul qilish uchun qurilish pudrat tashkiloti (yoki tadbirkor o'z kuchi bilan) qurilishni amalga oshiradi, «O'zGAShKLITI» DUK loyihalashtirish-tadqiqot tashkiloti tomonidan binolar va inshootlar, er osti muhandislik kommunikatsiyalarining raqamli ijro tasviri amalga oshirilishini ta'minlaydi. Qurilishi tugallangan ob'ektni foydalanishga qabul qilish uchun tuman (shahar) hokimi nomiga ariza topshiradi. Foydalanishga qabul qilish komissiyasi a'zolari tomonidan foydalanishga qabul qilish to'g'risidagi dalolatnoma imzolanganidan keyin tuman (shahar) hokimi dalolatnomani tasdiqlash to'g'risida qaror qabul qiladi. Oxirgi qadamda esa, tadbirkor qurilgan ob'ektga bo'lgan huquqni kadastr organlarida davlat ro'yxatidan o'tkazadi;

– biznesni davlat ro'yxatidan o'tkazish. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining № 2646-sonli «Tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish tizimini takomillashtirish to'g'risida»gi qarorining 2016 yil 28 oktyabrda qabul qilinishi yangi biznesni davlat ro'yxatidan o'tkazish tizimining joriy etilishiga mustahkam zamin yaratdi.

2017 yilning aprel oyidan boshlab, biznesni ro'yxatdan o'tkazish real vaqt rejimida ariza yuborilgan paytdan e'tiboran 30 daqiqa davomida amalga oshiriladi, quyidagi ikki holat bundan mustasno – ro'yxatdan o'tkazilishi 16 ish soati davomida amalga oshiriladigan ustav fondining oshirilishi va ta'sischilarning ulushlari (hissalari) boshqa shaxsga o'tishi.

O'zbekistonda biznesni ro'yxatdan o'tkazish ikki bosqichda amalga oshirilishi mumkin (birinchisi – real vaqt rejimida, optimallashtirilgan tartibda ro'yxatdan o'tkazish, ikkinchisi – bank hisob raqami ochish). Muassasani biznes boshlash bilan bog'liq rasmiyatchiliklar (bunga firma nomini band qilish, ro'yxatdan o'tkazganlik uchun davlat boji to'lash, ro'yxatdan o'tkazilganlik to'g'risidagi guvohnoma hamda ro'yxatga olingan ta'sis hujjatlarini olish, muhr tayyorlatish, soliq va statistika idoralari, Halq banki tomonidan hisobga qo'yish, bankda hisob raqami ochish)ni nazarda tutgan holda tashkil etish bir kunning egallaydi. Ro'yxatdan o'tkazuvchi organga taqdim etiladigan hujjatlar soni yuridik shaxs – tadbirkorlik sub'ektlari uchun oltitadan ikkitagacha, yakka tartibdagi tadbirkor sifatida ro'yxatdan o'tmoqchi bo'lgan jismoniy shaxslar uchun esa oltitadan bittagacha qisqarishi mumkin.

Yagona portal – [my.gov.uz](http://my.gov.uz) orqali avtomatlashtirilgan tizim vositasida ro'yxatdan o'tkazish tartiboti amaldagi tartibga nisbatan bir qator ustunliklarga ega ekanligini ta'kidlash joizdir. Xususan, hujjatlar Internet orqali topshirilganda ro'yxatdan o'tkazish, qayta ro'yxatdan o'tkazish uchun davlat bojlari stavkalari hozirgi tartibga nisbatan ikki barobar past qilib belgilangan.

O'zbekistonda investitsiya muhiti yildan yilga barqarorlashib borayotgan bo'lsa-da, lekin, mamlakatimiz hududlariga xorijiy investitsiyalarni jalb etish o'ta qoniqarsiz ahvolda qolmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi «Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak» nomli ma'ruzalarida mamlakatimiz hududlariga xorijiy investitsiyalarni jalb etish ahvoli bejizga tanqid qilinmadi. Jumladan, «... Xorijiy investitsiyalarni, birinchi navbatda, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish bo'yicha ishlar qanday ahvolda ekani tanqidiy tahlilni talab etadi. Bunday investitsiyalarning ulushi 30 foizga tushib qolgan.

Mahalliy hokimlarning aybi bilan mamlakatimiz hududlariga xorijiy investitsiyalarni jalb etish o'ta qoniqarsiz ahvolda qolmoqda.

Birgina misol keltiraman. Qashqadaryo, Namangan, Surxondaryo viloyatlarida atigi 18 ta loyihani amalga oshirishga 55 million dollar yoki har bir loyihaga o'rtacha 3 million dollardan xorijiy investitsiya jalb etilgan.

Ana shu hududlarning sanoati va infratuzilmasini rivojlantirish bo'yicha mamlakat Prezidenti tomonidan tasdiqlangan maxsus dasturlar amalga oshirilayotgan bir sharoitda bu albatta etarli emas...».<sup>41</sup>

Shuningdek, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev yuqoridagi ma'ruzalarida mamlakatimiz hududlariga salmoqli investitsiyalarni kiritishga doir muammolarga alohida e'tibor qaratish zarurligini ta'kidlab, tajriba loyihasi tariqasida Milliy bank misolida quyidagi tizimni joriy etish bo'yicha taklif kiritdilar. Jumladan, bank investitsiya faoliyatiga o'z mablag'lari bilan birga, tashqaridan moliyalashtirish manbalarini jalb etish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqishi kerak. Shuningdek, viloyat hokimlari har chorak yakuniga ko'ra tijorat banklari bilan birgalikda xorijiy investitsiyalarni olib kirish bo'yicha ishlarning qanday ahvolda ekani to'g'risida shaxsan Prezidentga axborotnoma kiritishlari belgilab qo'yildi.

«Ma'lumki, investitsiya siyosati milliy iqtisodiyot, tarmoqlar hamda hududlar rivojlanishi bilan uyg'un bo'lsagina o'zining kutilgan samarasini beradi. Ikkita muhim dastur – butun mamlakat miqyosida amalga oshiriladigan Investitsiya dasturi hamda har bir hudud doirasida ro'yobga chiqarilayotgan investitsiya jalb etish bo'yicha ko'rsatkichlar tahlili bir qator tendentsiya va xususiyatlarni namoyon qildi.

Avvalo, mamlakat hamda hududlar iqtisodiyotiga xorij investitsiyasini jalb etish nomutanosibligicha qolmoqda. Xorij sarmoyasining asosiy qismi baribir markazlashtirilgan holda jalb qilinayapti. Hududiy investitsiya dasturlari asosida yo'naltirilgan sarmoyalar hajmi jami xorij kapitalining 10,4 – 16,5 foizini tashkil

---

<sup>41</sup> Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak.//Halq so'zi.16.01.2017.

etadi. Bu mahalliy ijro hokimiyati organlarida chet el investitsiyasi bilan ishlash borasida muayyan muammo va kamchiliklar borligini ko'rsatadi.

Bu, avvalo, mahalliy tadbirkorlarning xorij investitsiyasini jalb qilishga qaratilgan loyihalarda sust ishtirok etayotgani oqibatidir. Chunki chet ellik investorlar bilan, asosan, yirik davlat korxonalari hamkorlik aloqalarini kengaytirmoqda. Natijada esa aksariyat xorij kapital qo'yilmalari neft-gaz, neft-kimyo, kimyo va tog'-kon tarmoqlarida to'planib qolayapti.

Viloyatlar o'rtasida chet el investitsiyasini jalb qilish borasida ham nomutanosiblik borligi ko'zga yaqqol tashlanadi. Investitsiyalarning yarmidan ko'pi Toshkent shahri hamda viloyati hissasiga to'g'ri keladi. Viloyatlarning xorij kapitali ishtirokidagi investitsiyalar taqsimotidagi ulushi 1 – 8 foizga farq qiladi. Va o'z-o'zidan ayon bo'ladiki, markaz hududiy investitsiya dasturlari doirasida tashkil etilayotgan qo'shma hamda chet el korxonalari soni bo'yicha ham etakchilik qilmoqda. Bu esa investorlarning mavjud ishlab chiqarish infratuzilmasiga, qulay logistika imkoniyatlariga, tabiiy resurs va xom ashyoga, bozor infratuzilmasi xizmatlariga hamda malakali kadrlar salohiyatidan foydalanishga intilishi bilan bog'liq.

Ushbu vaziyat joylarda ishlab chiqarish, yo'l-transport, kommunikatsiya va bozor infratuzilmasini, shuningdek, har bir hudud mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan kadrlarni tayyorlash hamda qayta tayyorlash bo'yicha ishlarni yanada yaxshilash yuzasidan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirishni taqozo etadi.

Aytish kerakki, yirik investitsiya loyihalarini ro'yobga chiqarish o'ziga xos kichik infratuzilma tizimini shakllantirishga xizmat qiladi. Bunday loyihalar natijasida mahalliy darajada yo'llar, elektr energiyasi tarmog'i, aholi punktlari quriladi, obodonlashtirish ishlari olib boriladi. Lekin kichik hududiy investitsiya loyihalari bunday o'zgarishlarni amalga oshira olmaydi. Chunki infratuzilmani rivojlantirish loyihalarini hayotga tatbiq etish uchun zarur bo'lgan katta sarf-xarajatlar sharoitida sanoat klasterlari (Andijon viloyatidagi mashinasozlik klasteri misolida), erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalarini barpo qilishni taqozo etadi.



Investitsiya oqimi sohalar bo'yicha ham sezilarli darajada farqlanadi. Bu borada engil sanoat hamda xizmatlar sohasi etakchilik qilsa, markazlashgan investitsiyalar tarkibida esa xorij sarmoyasining yarmidan ko'pi neft va gaz sohasiga to'g'ri keladi. Ammo ham davlat, ham hududiy investitsiya dasturlarida murakkab texnologik jarayonlarga hamda qo'shimcha qiymatga yuqori texnologiyalar qo'llaniladigan farmatsevtika, elektronika, mashinasozlik singari sohalardagi investitsiyalar tarkibida etarli ulushga ega emas.

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi har yili investitsiya dasturlarini, tarmoqlar hamda hududlarni o'rta muddatda rivojlantirish dasturlarini tayyorlaydi. Investitsiya dasturining yakuniy loyihasida hukumat nomi yoki kafolati ostida xorij investitsiyasini jalb qilish bo'yicha takliflar hamda hukumat imzolaydigan, 500 ming AQSh dollaridan yuqori bo'lgan investitsiya loyihalari kiritiladi. Ushbu qismga kirmay qolgan takliflar esa tarmoq va hududlarni rivojlantirish dasturlarida o'z aksini topadi.

Loyiha tashabbuskorlari (Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi hududiy boshqarmalari) investitsiya takliflarini hamda loyihalarning pasportlarini ishlab chiqadi. So'ngra ular tegishli hokimliklarda ko'rib chiqilib tasdiqlanadi va Iqtisodiyot vazirligi bilan kelishiladi. Potensial investor topilgandan so'ng muzokaralar -boshlanadi.

Bunda mahalliy davlat hokimiyati organlarining vakolatlari loyiha tashabbuskorlariga investitsiya taklifi hamda pasportini ishlab chiqish bilan cheklanib qoladi. Hokimliklar chet el investitsiyasini jalb qilish jarayonida bevosita ishtirok etmaydi. Chunki mavjud tashkiliy-kadrlar asosi bunday ishni samarali amalga oshirish imkonini bermaydi.

Loyihalar sonining ko'pligi oqibatida istiqbolli hududiy takliflar markaziy davlat organlari nazaridan chetda qolib ketishi mumkin. Natijada ayrim hududlarda amalga oshirilgan investitsiya loyihalari soni juda kamchilikni tashkil qiladi.

Shu munosabat bilan Prezidentning 2008 yil 24 iyuldagi «Xorijiy investitsiyalar va kreditlarni jalb etish hamda o'zlashtirish jarayonini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qaroriga o'zgartish kiritish

maqsadga muvofiq. Bunda mahalliy davlat hokimiyati organlariga hudud darajasida o'rta va kichik investitsiya loyihalarini birgalikda amalga oshirish uchun xorij investitsiyasini topish hamda jalb qilish vakolatini berish juda muhimdir.

Investitsiya faoliyatini rag'batlantirish mamlakatda investitsiya muhitini yanada yaxshilashni talab etadi. Respublikaning investitsiya strategiyasi va qonunchilik hujjatlari iqtisodiyot tarmoqlari faoliyatini muntazam monitoring qilish natijalari asosida takomillashtirilishi hamda yangilab borilishi lozim.

Bugungi kunda investitsiya dasturiga kiritilgan ustuvor loyihalar ishtirokchilari hududiy biznesga pul tikadiganlarga qaraganda birmuncha qulay sharoitda ish olib boradi. Xususan, hududiy taraqqiyotga investitsiya yo'naltirayotgan sub'ektlar loyihaga xorijlik mutaxassislarni jalb etish imkoniyatiga ega emas. Bundan tashqari, investor o'z mablag'ini qo'yish uchun joy va ob'ektni mustaqil tanlashda turli qiyinchiliklarga duch kelmoqda.

«Chet el investitsiyalari to'g'risida»gi Qonunga muvofiq, chet ellik investor xalqaro huquq printsiplari hamda O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq investitsiyalashni amalga oshirishning hajmlari, turlari va yo'nalishlarini mustaqil belgilash, investitsiya faoliyatini amalga oshirish uchun yuridik hamda jismoniy shaxslar bilan shartnomalar tuzish huquqiga ega. Ammo amaliyotda ushbu mexanizm etarli darajada ishlamayapti. Bu, ayniqsa, hududlarda ko'zga yaqqol tashlanadi. Ko'p hollarda mahalliy davlat hokimiyati organlari chet el korxonalariga investitsiya kiritiladigan ob'ektni tanlashga mustaqil ruxsat berish imkoniyatiga ega emas. Ruxsatnomani Davlat raqobat qo'mitasining tegishli organlaridan olish kerak bo'ladi. Mahalliy davlat hokimiyati organlari soliq va boshqa imtiyoz hamda preferentsiyalarni taqdim eta olmaydi.

Mahalliy davlat hokimiyati organlari huquqiy maqomini tartibga soluvchi qonun hujjatlari, ularning iqtisodiyot, shu jumladan, xorij investitsiyasini jalb qilish masalalari bo'yicha huquq va vakolatlari aniq hamda batafsil ochib berilgan ijro tartib-taomillari va mexanizmlariga ega emas. Bir tarafdin, hokimliklar tegishli hududning iqtisodiy rivojlanishi uchun mas'ul bo'lsa-da, boshqa tomondan ularning investitsiya jalb etishdagi ishtiroki birmuncha chegaralangan. Bundan

tashqari, garchi qonunchilikka binoan mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan belgilangan bir qator mahalliy soliq hamda to'lovlar bo'lsa-da, amalda hokimliklar investorlarga qo'shimcha imtiyozlar, preferentsiya va afzalliklarni bera olmaydi, ularni u yoki bu majburiy to'lovlardan ozod qilolmaydi.

So'nggi yillarda to'g'ridan-to'g'ri jalb etilgan investitsiyalar jami sarmoyalar hajmining 16,5 foizidan oshmaydi. Bu raqamning o'ziyoq hududiy investitsiya siyosatini qayta ko'rib chiqish zarurati mavjudligining tasdig'idir. Shu munosabat bilan xorij kapitalini jalb qilish hamda o'zlashtirish maqsadida mahalliy davlat hokimiyati organlariga qo'shimcha vakolatlar berish masalasini ko'rib chiqish zarur. Davlat investitsiya dasturiga loyihalarni kiritish uchun eng kam kapital qo'yilma miqdorini 200 – 300 ming AQSh dollarigacha tushirish maqsadga muvofiqdir. Bunda loyihalar hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi uchun muhim bo'lishi va xalq deputatlari mahalliy Kengashi qarori bilan tasdiqlanishiga e'tibor qaratilishi lozim. O'z navbatida, yirik investitsiya loyihalarining hududiy investitsiya dasturlariga kiritilishi viloyatlar hokimlarining loyihani amalga oshirishdagi mas'uliyatini yanada yuksaltirishga xizmat qiladi.

Hududlarning investitsiya salohiyatiga oid axborotni ko'paytirish hamda sarmoyadorlar izlab topish uchun qulay vositalarda joylashtirish lozim. Hokimliklar rasmiy veb-saytlari Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi, «O'zinfoinvest» agentligi mutaxassislarining texnik hamda ekspertlik ko'magida zarur axborot bilan to'ldirilishi kerak. Bundan tashqari, har bir hududning imkoniyatlarini ko'rsatib beradigan, O'zbekistonda investitsiya faoliyatiga bag'ishlangan maxsus internet-portalini bir necha tilda tashkil etish mumkin. Qolaversa, hududlarning kadrlar salohiyatini oshirish, loyiha taklifi tashabbusi bilan chiqishini kengaytirish ham bugungi kunning asosiy talablaridandir». <sup>42</sup>

---

<sup>42</sup> G'aybullaev O. Hududlarga investitsiya jalb qilish – ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning muhim omili. //Halq so'zi.03.02.2017.

### **3.2. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlari faoliyatiga xorijiy investitsiyalarni jalb etishni takomillashtirish yo'nalishlari**

Barchamizga ma'lumki, kichik biznes sub'ektlariga mustaqillik berish, ular faoliyatining yakuniy natijalari uchun javobgarlik hissini oshiradi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biribo'lib hisoblanadi. Shu jumladan, hozirgi kunda tijorat banklarining ham oldiga quyilgan eng asosiy vazifalardan biri - kichik biznes sohasini yetarlicha moliyaviy resurslar va xizmatlar bilan ta'minlashdan iboratdir. Kichik biznes aholi zich joylashgan hududlarda ishsizlik muammosini hal qiladi. Shu sababli, bank tizimida kreditlash mexanizmini takomillashtirish buyicha chora-tadbirlar amalga oshirib kelinmokda.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishi mamlakatda raqobatchilikning zarur muhitini hosil qilib, bozor sharoitidagi ko'pgina o'zgarishlarga tezda moslasha oladi, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohasida yangidan-yangi qo'shimcha ish o'rinlarini yaratadi va mamlakatda ijtimoiy muhitni ta'minlash uchun o'rta sinfni shakllantirish manbai hisoblanadi.

Birinchiidan, u bozor iqtisodiyotining zarur sharoitlariga tezda moslashib, chuqur ixtisoslashuv va kooperatsiyalashuvi natijasida uning yuqori samaradorligini ta'minlaydi. Ikkinchiidan, u bozordagi talab va taklif mutanosibligini hisobga olib, aholi ehtiyoji uchun zarur bo'lgan tovar va xizmatlarni bozorga tezda etkaza olish imkoniyatlari yuqoriligi bilan alohida ajralib turadi. Uchinchiidan, raqobatchilik muhitini yaratish orqali iste'molchilar uchun arzon va sifatli tovar va xizmatlar taklif qiladi. To'rtinchidan, bozor iqtisodiyoti usiz mavjud bo'lmaydigan tadbirkorlik muhiti va ruhini yaratadi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning yana bir muhim jihati shundaki, kuchli raqobatchilik muhiti sharoitida ular doim rivojlanishga majbur bo'lishadi va bozorning joriy shartlariga moslashishlariga to'g'ri keladi, boshqa tadbirkorlik sub'ektlaridan ustun bo'lishlari ularning foyda miqdorlarining oshish manbai

hisoblanadi. Zero, bozor iqtisodiyoti insonlar o'zlari istaganlaridek hayot kechirishi uchun barchani tinimsiz harakatda bo'lishini talab etadi.

Mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik manfaatlarini ishonchli himoya qilish, ularning kelgusi rivojini munosib ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi farmoni butun mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotini qamrab olganligi bilan bir qatorda birgina kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda tizimli, tanqidiy va kompleks yondashuv zarur ekanligini ko'rsatib berdi. Harakatlar strategiyasining beshta ustuvor yo'nalishida keltirilgan har bir vazifaning bajarilishida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning o'rni nihoyatda beqiyosdir. Jumladan, "Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo'nalishlari" deb nomlangan uchinchi ustuvor yo'nalishda mamlakatda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish maqsadida quyidagilar ustuvor vazifa deb belgilangan:

- milliy iqtisodiyotning mutanosibligi va barqarorligini ta'minlash, uning tarkibida sanoat, xizmatlar ko'rsatish sohasi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ulushini ko'paytirish;

- fermer xo'jaliklari, eng avvalo, qishloq xo'jaligi mahsulotlarni ishlab chiqarayotgan, qayta tayyorlanayotgan, tayyorlash, saqlash, sotish, kurilish ishlari va xizmatlar ko'rsatish bilan shug'ullanayotgan ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklarini rag'batlantirish va rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish;

- xususiy mulkning huquq va kafolatlarini ishonchli himoya qilishni ta'minlash, barcha turdagi to'sqinliklar va cheklanishlarni bartaraf etish, xususiy tadbirkorlik va kichik biznesni rivojlantirish yo'lida to'liq erkinlik berish, amaliyotda "Agar xalq boy bo'lsa, davlat ham boy va kuchli bo'ladi" degan printsipni amalgi oshirish;

kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni keng rivojlantirish uchun qulay ishbiarmonlik muhitini yaratish, tadbirkorlik tuzilmalarining faoliyatiga davlat,

nazorat va huquqni muhofaza qiluvchi organlarning noqonuniy aralashuvini qat'iy oldini olish.

Tahlillarga murojaat qiladigan bo'lsak, Qashqadaryo viloyatida ham kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish maqsadida samarali va salmoqli ishlar amalga oshirilganligini quyidagi ma'lumotlar asosida ko'rishimiz mumkin. Qashqadaryo viloyatida 2017 yilning 1 yanvar holatiga ro'yxatga olingan jami kichik tadbirkorlik (biznes) sub'ektlarining soni 15180 tani tashkil qilgan bo'lib, yalpi hududiy mahsulotning 51,7 foizi kichik biznes sub'ektlari tomonidan ishlab chiqarildi.

2016 yilda viloyatda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan jami 945,4 ming nafar kishining bandligi ta'minlandi (jami iqtisodiyotda band bo'lganlarning 80,1 foizi), shu jumladan band bo'lganlarning 601,1 ming nafari yakka tartibdagi tadbirkor, 160,3 ming nafari kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri keldi.

Sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmining 27,4 foizi (2643,8 mlrd. so'm), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaliklari yalpi mahsulotining 99,5 foizi (3918,4 mlrd. so'm), umumiy investitsiyalar hajmining 16,8 foizi (1063,9 mlrd. so'm), qurilish ishlari umumiy hajmining 71,4 foizi (1732,8 mlrd. so'm), chakana tovar aylanmasi umumiy hajmining 85,9 foizi (5335,2 mlrd. so'm), xizmatlar umumiy hajmining 71,9 foizi (3274,8 mlrd. so'm), umumiy eksport hajmining 41,5 foizi (125,2 mln. AQSh dollari), avtomobil transporti yuk aylanmasining 109,2 foizga (umumiy yuk aylanmasiga nisbatan 93,4 ulushi), yo'lovchi aylanmasining esa 107,8 foizga (umumiy yo'lovchi aylanmasiga nisbatan 91,9 ulushi) ko'payishi ta'minlandi.

Yalpi hududiy mahsulot va iqtisodiyot tarmoqlari mahsuloti (ishlar, xizmatlar) umumiy hajmida kichik tadbirkorlik (biznes) ulushining o'zgarishi quyidagicha ifodalanadi :

Mamlakatimizda kichik biznesni rivojlantirish uchun qulay ishbilarmonlik muhitini shakllantirish va tadbirkorlikka yanada keng erkinlik berish borasida qabul qilingan direktiv hujjatlar ijrosini ta'minlash borasida amalga oshirilgan

keng ko'lamli tadbirlar kichik biznes sub'ektlariga ajratilgan kreditlar hajmining 2015 yilga nisbatan 1,3 barobar ko'payishiga, 2017 yilning 1 yanvar holatiga ko'ra 15,9 trln. so'mdan oshishiga imkon berdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 11 martdagi "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga kredit berishni ko'paytirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori va 2012 yil 18 iyuldagi "Ishbilarmonlik muhitini yanada tubdan yaxshilash va tadbirkorlikka yanada keng erkinlik berish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni hamda boshqa qarorlariga muvofiq, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini kreditlash hajmini yanada oshirish, kreditlash shartlarini soddalashtirish, ularga bank xizmatlaridan foydalanish borasida qo'shimcha imtiyoz va qulayliklar yaratish bo'yicha chora-tadbirlar izchillik bilan amalga oshirib kelinmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014 yil 7 apreldagi "O'zbekiston Respublikasida investitsiya iqlimi va ishbilarmonlik muhitini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmonini bajarish yo'lida tadbirkorlarning huquq va manfaatlarini himoyalashni kuchaytirishga, ularning moliya-xo'jalik faoliyatini tekshirishlar sonini cheklashga, qo'shimcha soliq imtiyozlari va afzalliklarini berishga, tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish mexanizmlarini soddalashtirishga, tadbirkorlik faoliyatini erkinlashtirishga hamda davlat organlari faoliyatining aniqligini oshirishga yo'naltirilgan normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

Bulardan tashqari, mulkni ro'yxatdan o'tkazish, yer uchastkalari ajratish, ayrim faoliyat turlari bilan shug'ullanishga litsenziya berish, qurilishga ruxsatnomalar olish, elektr ta'minoti tarmoqlariga ulanish chog'ida "bir darcha" qoidasi keng miqyosda joriy etilmoqda. 2015 yilning 1 yanvaridan boshlab esa barcha yuridik shaxslar statistik va soliq hisobotlarini elektron ko'rinishda taqdim etishmoqda.

Respublikamiz va uning mintaqalarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish va ularning bajarilishini qattiq nazoratga olish maqsadga muvofiq:

- tadbirkorlarga berilgan imtiyoz va engilliklardan foydalanish jarayonida sun'iy to'siqlar paydo bo'lmasligini qattiq nazoratga olish;
- tadbirkorlarning investitsion faoliyatini qo'llab-quvvatlash maqsadida nafaqat ichki kredit liniyalari, balki tashqi kredit liniyalaridan foydalanish imkoniyatlarini oshirish;
- investitsion loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlarini ishlab chiqish;
- joylarning tabiiy xususiyatlari va imkoniyatlaridan kelib chiqib joylarda tadbirkorlik shakllarini rivojlantirish;
- qishloq joylarda xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish hisobiga qishloq aholisining tadbirkorlik bilan shug'ullanish borasidagi fikrlarini jonlantirish;
- tadbirkorlik loyihalarini amalga oshirish uchun tijorat banklaridan kredit olishni kafolat fondlari orqali kafolatlashni joriy qilish;
- tijorat banklarining biznesni modernizatsiyalash uchun ajratayotgan kredit stavkalarini yanada kamaytirish.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ravnaq topishidan nafaqat mamlakatimiz iqtisodiyoti, balki uning har bir fuqarosi manfaatdor ekan, yuqoridagi chora-tadbirlarning amalga oshirilishi mamlakatimiz iqtisodiyotida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning yanada kengroq rivojlanishiga sababchi bo'ladi.

Shu o'rinda kichik biznes sub'ektlarini kreditlash jarayoniga xorijiy banklar va xalqaro moliya institutlarining kredit liniyalari tobora keng jalb qilinayotganini ham ta'kidlab o'tishga to'g'ri keladi. Birgina, 2016 - yilda 2016.7 mln. AQSh dollarini tashkil etdi. "2017-2021 yillarda O'zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasi ham kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini moliyalashtirish uchun xalqaro moliya institutlari va xorijiy davlatlar xukumatlarining imtiyozli kredit liniyalari va grantlarini jalb etishi ta'kidlangan. Xususan, 2017 yilda qishloq xo'jaligini rivojlantirish uchun Xalqaro moliya tashkilotlari mablag'larini jalb etish:

- Osiyo taraqqiyot bankining 150.0 mln.dollar bablag'ini "Qishloq xo'jaligini ishlab chiqarishini modernizatsiya qilish" loyihasiga;



- Xalqaro taraqqiyot va tiklanish bankining 150.0 mln.dollar mablag'ini "Chorvachilik sektorini rivojlantirish " loyihasiga

- Xalqaro qishloq xo'jaligi taraqqiyoti jamg'armasining 23.8 mln.dollar mablag'ini "Qashqadaryo va Jizzax viloyatlarida sut mahsulotlarini ishlab chiqarishni kengaytirish va qayta ishlashni rivojlantirish" loyihasiga <sup>43</sup>jalb etish ko'zda tutilgan.

Umuman rivojlangan davlatlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni moliyaviy sog'lomlashtirish sohasida katta tajribalar to'plangan. Bunda quyidagilarga tayaniladi:

- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan maxsus qonunlarga;

- kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning Davlat dasturlariga;

- kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni kafolatli va imtiyozli kreditlovchi firmalarga;

- kichik biznes sub'ektlari faoliyatini imtiyozli kreditlashga, ularga soliq yukini engillashtirishga;

Respublikamizda ham kichik biznes sohani har tomonlama rivojlantirish maqsadida turli xil imtiyozlar berilayotganligini ta'kidlab o'tish o'rinli hisoblanadi.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 19-noyabrdagi PF-4010–sonli "Iqtisodiy nochor korxonalarini tijorat banklariga sotish to'g'risidagi tartibni tasdiqlash to'g'risida" gi Farmoyishi bilan iqtisodiy nochor korxonalarining moliyaviy qobiliyatini tiklash bo'yicha bankrot korxonalar negizida yangi tashkil etilgan xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni qo'shimcha qiymat solig'idan, uch yil davomida foyda solig'idan, yagona soliq to'lovi, mulk solig'i va yer soliqlari to'lashdan, boshqaruv kompaniy alariga berilganida foyda solig'i va yagona soliq to'lovidan ikki yil davomida ozod qilindi.

---

<sup>43</sup> Sh.Mirziyoyev 2017-2021 yillarda O'zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasi

Shu bilan bir qatorda, kichik biznes sub'ektlariga mikro kredit ajratishni rivojlantirish va uni takomillashtirish jarayoniga quyidagilarni hisobga olish kerak deb o'ylaymiz:

- respublikamizda aholining asosiy qismi qishloq xo'jaligi ishlari bilan band bo'lganligini hisobga olib, joylarda tadbirkorlik faoliyatini boshlash yuzasidan ko'proq qabul qilingan qonunlar va yo'riqnomalarni tanishtirish borasida seminar mashg'ulotlari o'tkazishni zarur deb hisoblaymiz, ;

- eng asosiysi kichik biznes sub'ektlarini huquqiy savodxonligini oshirish;

Kichik biznesni xalqaro moliya tashkilotlari tomonidan kreditlashni takomillashtirish bo'yicha takliflar:

- mamlakatimizda qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarish salohiyati yuqoriligini hisobga olgan holda, joylarda kichik biznes subyektlariga mini texnologiyalar sotib olish uchun mikro kreditlar ajratish mexanizmini takomillashtirish;

- kredit uyushmalari faoliyatini takomillashtirish;

- moliyalashtirish institutlari va sug'urta kompaniyalarini pul o'tkazuvchi kompaniyalar bilan hamkorligini ta'minlash;

- moliyalashtirish institutlarini boshqa korporativ formalarga aylanishiga imkon berishning qonuniy shart sharoitini ta'minlash;

- kichik biznes subyektlariga nafaqat milliy valutadagi imtiyozlar haqida balki, xalqaro moliya tashkilotlari tomonidan ajratilayotgan kredit va grantlar haqidagi ma'lumotlarni to'liq va aniq namoyon bo'lishi uchun turli hil seminarlarni tashkil etish.

Tadqiqot natijasida shu narsa ma'lum bo'ldiki, yurtimizdagi tijoratbanklar amaliyotida kichik biznes sub'ektlarini kreditlash bo'yicha ancha tajribalar yig'ilmoqda. Chet el banklari tajribalaridan ham unumli foydalanib kelinmoqda. Ammo mamlakatimizda kichik biznesni kreditlash jarayonining o'ziga xos muammolari ham mavjud. Tadqiqot jarayonida O'zbekiston Respublikasida kichik biznesni kreditlash faoliyatida yuzaga kelayotgan muammolarni aniqlash va

mavjud bo'lgan muammolarni chet el tajribasini inobatga olgan holda bartaraf etish bo'yicha quyidagi takliflarni amalga oshirish kerak degan fikrdamiz:

- maxsus kredit tashkilotlarini tashkil etish va ular faoliyatida kichik biznesni kreditlashni asosiy vazifa sifatida kiritish;

- kichik biznesni kreditlashda xorijiy davlatlarning samarali banktajribasiga tayangan holda, ushbu tajribalarni Respublikamizda mazkur soha miqyosida targ'ib qilish;

- kichik biznes sub'ektlarini asosiy muammolaridan biri bo'lgan garov masalasida yordam ko'rsatish maqsadida, turli kafolat fondini tashkil etish;

- kredit uyushmalari faoliyatini takomillashtirish;

Shu o'rinda, Respublikamiz tijorat banklarining kichik biznes subuektlarini kreditlash amaliyotini takomillashtirishga qaratilgan faoliyati bo'yicha quyidagi takliflarni ishlab chiqdik:

- kredit siyosatida kreditlarni joylashtirish jarayonida kichik biznestarmog'i uchun limitlarni ko'paytirish.

- respublikamiz tijorat banklari kredit portfelining diversifikatsiya darajasiga yanada e'tiborini oshirish.

- tijorat banklari kredit bo'linmalari xodimlarining korxonalar moliyaviy hisobotlarini talil qilish borasidagi bilimi va tajribalarini oshirish choralarini ko'rish lozim.

- bank xodimlarining moliyaviy tahlil sohasida chuqur bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi mijozlarning kredit to'loviga qobiliyatini baholashda muhim ahamiyat kasb etadi. Moliyaviy ko'rsatkichlarni va mijozlarning pul oqimini to'g'ri hisoblash moliyaviy hisobotlarda keltirilgan ma'lumotlarning haqqoniyligiga bog'liqdir.

- tijorat banklari mijozlarining asosiy qismida pul oqimining nobarqarorligini hisobga olib, banklarda mijozlarning kredit to'lov qobiliyatini baholashning moliyaviy koeffitsientlar usulidan to'liq foydalanishni yo'lga qo'yish lozim.

- respublikamizning tijorat banklarida beshta moliyaviy ko'rsatkichdan

mijozlarning kredit to'lov qobiliyatini baholashda faol tarzda foydalanilmoqda.

Lekin o'ylashimizcha, ushbu koeffitsientlar mijozni kredit to'lov qobiliyatini aniqlab berolmaydi. Shuning uchun respublikamiz tijorat banklarining faoliyatida, mijozlarning kredit to'lov qobiliyatini baholashda moliyaviy ko'rsatkichlar tizimidan to'liq foydalanish masadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Bank investitsiyaviy faoliyatining asosiy yo'nalishlarini ko'rib chiqib shuni aytish mumkinki, mamlakatimiz tijorat banklarining xorijiy investitsiyalar va kredit liniyalarini jalb etish sohasida XMT bilan hamkorligini yanada kengaytirish dolzarb masalaligicha qolmoqda. Shundan kelib chiqib xulosa qilish mumkinki, bugungi kunda shularga asosan shakllangan mahalliy korxonalarimiz, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari, fermerlikni o'zaro manfaatli va o'zaro kafolatli tarzda kreditlash mexanizmi to'laligicha o'zini oqlamoqda va bu mexanizm milliy iqtisodiyotimizning raqobatbardoshligini va aholining farovonligini oshirishga xizmat qilayotir.

### **III bob bo'yicha xulosa**

Mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida davlat investitsiya dasturining ahamiyati, eng avvalo, iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarini moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlashi va yanada rivojlantirishi bilan izohlanadi. Bugungi kunda kichik biznes korxonalarida moliyaviy boshqaruvni tashkil etish va isloh qilish masalalari dolzarbligicha kichik biznes korxonalarini faoliyati iqtisodiy va tashkiliy sharoitlarining keskin o'zgarishi, iqtisodiyotning erkinlashuvi sharoitida ularning yashab qolishi va taraqqiyotining mavjud moliyaviy imkoniyatlardan samarali foydalanish darajasiga bevosita bog'likligi bilan xususiyatlanadi. Umuman, kichik biznes korxonalarini faoliyatini moliyalashtirish muammosi hozirgi kunda eng dolzarb masalalardandir.

Bizningcha kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish maqsadida qo'yidagi chora tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

– mamlakatimiz va uning hududlarida yanada qulay biznes muhiti yaratish, xususiy mulkchilikning ustuvorligini mustahkamlashga yo'naltirilgan qonun xujjatlarini takomillashtirish;

– xususiy tadbirkorlikka ko'proq erkinlik berish, davlatning boshqaruv funksiyalari va belgilangan me'yorlarni qisqartirish;

– kichik biznes sub'ektlarining moliya-kredit va xomashyo resurslaridan, ular ishlab chiqargan mahsulotlarga davlat buyurtmalari berilishidan keng foydalanishni ta'minlaydigan bozor vositalari va mexanizmlarini tatbiq etish;

– kichik korxonalarini tashkil qilish hamda kichik korxonalar va tadbirkorlarni ro'yxatdan o'tkazish tartib-qoidalarini yanada soddalashtirish;

– kichik biznes sub'ektlarini qurish va ularni muxandislik kommunikatsiya tarmoqlari – energiya va gaz ta'minoti, suv va issiqlik ta'minoti hamda boshqa tarmoqlarga ulanishi bo'yicha shart-sharoitlarni yaxshilash va muddatlarini qisqartirish;

Tijorat banklarining iqtisodiyot tarmoqlarini moliyalashtirish, shu jumladan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatishda muammolar mavjudligini ko'rsatadi. Mamlakatimiz hukumati tomonidan tijorat banklarining kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini moliyalashda etarli darajada me'yoriy-huquqiy hujjatlarni qayta ko'rib chiqmoqda.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Jahon iqtisodiyotida kichik biznes ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etishda, yangi ish o'rinlarini barpo qilishda, bozor o'zgarishlariga nisbatan tez moslashishda va mulkdorlar sinfini shakllantirishda alohida ahamiyatga va yuqori samaradorlikka ega ekanligi tasdiqlanmoqda.

Qator mamlakatlarda kichik biznesning iqtisodiyotda tutgan o'rniga, uning tadbirkorlikni rivojlantirishdagi va bozor munosabatlarini shakllantirishdagi ahamiyatiga alohida e'tibor berilmoqda. Shu nuqtai-nazardan bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarning kichik biznesni moliyalashtirish yuzasidan tajribalarini atroflicha o'rganish va samarali bo'lgan usullarni milliy iqtisodiyotning xususiyatlarini hisobga olgan holda joriy qilish bosh masaladir. Bu esa, o'z navbatida, O'zbekistonda kichik biznes loyihalarini moliyalashni takomillashtirishga ham xizmat qiladi.

Mamlakatimizda kichik va xususiy tadbirkorlik iqtisodiyotning deyarli barcha soxalarida barpo qilinmoqda va rivojlanib bormoqda. Ana shundan kelib chiqqan holda, respublika hukumati ko'p qirrali iqtisodiyotni shakllantirishni va bunda xususiy mulk, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka birinchi darajali ahamiyat berishni "strategik vazifa" sifatida belgilab oldi. Chunki, o'lkamizning o'ziga xos xususiyati, rivojlangan qishloq xo'jaligi va xom ashyo bazasi, xalqimizning turmush va tafakkur tarzi kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada faol rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlarni yuzaga keltiradi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining faol investitsiya loyihalarini moliyalashtirishdan kelib chiqib, quyidagi umumlashgan xulosalarimizni ishlab chiqdik. Ularni qisqacha quyidagicha ifodalashimiz mumkin.

1. Bozor iqtisodiyoti tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, kichik biznes korxonalarining rivojlanishi iqtisodiyotga bir qancha ijobiy ta'sirlar ko'rsatishi mumkin. Jumladan,

- iste'mol doirasini yangi-yangi talablar bilan to'ldiribgina qolmay, zamonaviy texnologiyani joriy qilgan holda o'z harajatlarini ham to'liq qoplaydi;

- bozorda zarur bo'lgan raqobat maydonini yuzaga keltiradi va buning uchun ular turli shakllarga kira oladi hamda bozor kon'yunkturasiga moslasha oladi.

2. Ko'pchilik iqtisodchi olimlarning qarashlarini tahlil etib va o'z mulohazalarimizdan kelib chiqib, xulosa qilamizki, Kichik biznes korxonalarini quyidagi funktsiyalarni bajaradi;

- aholining moliyaviy va ishlab chiqarish resurslarini jalb qilish;
- raqobat muhitini shakllanishiga ko'maklashish;
- ilmiy-texnika taraqqiyotining muxim yo'nalishlari bo'yicha katta yangiliklar yaratish;
- aholi bandligini ta'minlash.
- talabni yangi qirralarini paydo bo'lishiga imkoniyat yaratish.

3. Kichik korxonalarining hammasi ham faoliyatini davom ettirmasada, lekin, asosan ular xujalikning hamma shakllariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun aytish mumkinki, Kichik biznes korxonalarini bozor muhitini yanada takomillashtirishga, ijtimoiy ishlab chiqarish tizimlarining o'zgartirishga, O'zbekistondagi hozirgi kunda dolzarb bo'lib turgan muammolarni hal qilishga yangicha imkoniyatlar yarata oladi.

4. Umumiqtisodiyot kabi, kichik biznesni rivojlanishi ham tsiklik xarakterga egadir. Kichik biznes korxonalarini quyidagi xollarda rivojlanadi va taraqqiy etadi:

- bozor kon'yunkturasi erkin faoliyat yurita olganda;
- davlatning iqtisodiyotga aralashuvi normallashtirganda;
- bir iqtisodiy tuzumdan ikkinchi iqtisodiy tuzumga o'tganda.
- iqtisodiyotda talab massasi va ishsizlar hajmi ortganda.

5. Kichik biznes korxonalarining faoliyatini kengaytirishda, ularni boshqarishda, tartibga solishda moliya-kredit mexanizmining ta'siri katta bo'lib, ular o'rtasidagi munosabatlarning takomillashuvi iqtisodiyotni rivojlanishiga, taraqqiy etishiga olib keladi.

Mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari investitsion loyihalarini moliyalashtirishni yanada rivojlantirish maqsadida quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

- banklar kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning mamlakat yalpi mahsulot ishlab chiqarishdagi ulushini ko'paytirish maqsadida sohaga kredit ajratish mexanizmini takomillashtirish;

- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalari faoliyatini rivojlantirishga xorijiy kredit liniyalaridan mablag'lar jalb qilishni kengaytirish;

- iqtisodiyotning turli tarmoqlaridagi kichik biznes korxonalar faoliyati barqarorligini reyting usulida baholashni yanada takomillashtirish zarur;

- kichik biznes sub'ektlari faoliyatidagi risklarni sug'urtalash amaliyotini takomillashtirish maqsadida kichik biznes sub'ektlarining tadbirkorlik riskini sug'urtalovchi davlat sug'urta kompaniyalarining ustav kapitalini davlat mablag'lari hisobidan oshirish va ushbu mablag'larni sug'urta qoplash summalari sifatida maqsadli ishlatilishini ta'minlash zarur;

- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik – kelajakda ishlab chiqarish va eksport tarkibida harakatchan, tez o'zgarish qobiliyatiga ega bo'lgan tarmoq sifatida iqtisodiyotda etakchi o'rin tutishiga erishish kerak;

- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sifatli hamda zamonaviy texnik baza negiziga ega bo'lishi kerak. Bozor infratuzilmasini maxsus markazlar, lizing kompaniyalari tarmog'ini har tomonlama servis xizmati yo'li bilan rivojlanishi lozim.

- jalb etilgan chet el investitsiyalarini mamlakatimizning barcha mintaqalariga yo'naltirish, shu bilan bir qatorda, ushbu mablag'larni eng avvalo tarkibiy qayta o'zgartirishlarni chuqurlashtirish va iqtisodiyotni diversifikatsiyalash, mavjud quvvatlarni modernizatsiya qilish va texnologik yangilashni jadallashtirish va sanoat kooperatsiyasi asosida ishlab chiqarishni mahalliyashtirish jarayonlarini chuqurlashtirish loyihalarini moliyalashtirish uchun yo'naltirishga alohida e'tibor qaratish;



– xorijiy kredit liniyalarining afzalliklarini inobatga olgan holda hududlardagi mavjud boʻsh turgan va faoliyatsiz binolar negizida yuqori texnologiyalarga asoslangan yangi ishlab chiqarishlarni tashkil etish va bunda asosiy eʼtiborni jahon bozorlarida va ichki bozorlarda talab mavjud boʻlgan raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish, mahsulot ishlab chiqarishda material va energiya sarfini kamaytirish bilan bogʻliq loyihalarni moliyalashtirishga alohida eʼtibor qaratish;

– kichik biznes subʼektlarining moliya-kredit va xomashyo resurslaridan, ular ishlab chiqargan mahsulotlarga davlat buyurtmalari berilishidan keng foydalanishni taʼminlaydigan bozor vositalari va mexanizmlarini tatbiq etish;

– kichik korxonalarini tashkil qilish hamda kichik korxonalar va tadbirkorlarni roʻyxatdan oʻtkazish tartib-qoidalarini yanada soddalashtirish;

– kichik biznes subʼektlarini qurish va ularni muxandislik kommunikatsiya tarmoqlari – energiya va gaz taʼminoti, suv va issiqlik taʼminoti hamda boshqa tarmoqlarga ulanishi boʻyicha shart-sharoitlarni yaxshilash va muddatlarini qisqartirish;

– kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subʼektlariga tijorat banklari tomonidan kreditlar berish mexanizmini yanada takomillashtirish va ularning hajmini oshirish;

– kichik biznesni rivojlantirishga xorijiy investitsiyalarni, avvalambor, xalqaro moliya institutlarining kreditlarini hamda toʻgʻridan-toʻgʻri investitsiyalarni jalb etish va yoʻnaltirish;

– sanoat tarmoqlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish hamda yuqori texnologiyaga asoslangan zamonaviy ishlab chiqarishlarni tashkil etish uchun keng imkoniyatlar yaratish;

– kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subʼektlar tomonidan ishlab chiqarishga innovatsion texnologiyalarni joriy etishni ragʻbatlantirish;

– kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subʼektlarining tashqi iqtisodiy faoliyatdagi ishtirokini kengaytirish masalalarini tubdan hal etish, ularning eksport salohiyatini oshirishga koʻmaklashish.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

### I. Normativ-huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga molik nashrlar

- 1.1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi , T.: "O'zbekiston" , 2016
- 1.2. "Investitsiya faoliyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 2014 yil 9 dekabr, O'RQ-380-son.
- 1.3. "Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni, 30 aprel 1998 yil.
- 1.4. "Erkin iqtisodiy zonalar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni, 25 aprel 1996 yil.
- 1.5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014 yil 7 apreldagi "O'zbekiston Respublikasida investitsiya iqlimi va ishbilarmonlik muhitini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-4609-sonli Farmoni.
- 1.6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 18 martdagi "Jizzax" maxsus industrial zonasini barpo etish to'g'risida»gi PF-4516-sonli Farmoni.
- 1.7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 13 apreldagi "Angren" maxsus industrial zonasini barpo etish to'g'risida»gi PF-4436-sonli Farmoni.
- 1.8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 10 apreldagi "To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar jalb etilishini rag'batlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni.
- 1.9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 2 dekabrda "Navoiy viloyatida erkin industrial-iqtisodiy zona tashkil etish to'g'risida"gi 4059-sonli Farmoni.
- 1.10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 11 apreldagi "To'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni rag'batlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni.

1.11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 21 iyuldagi "Tashqi iqtisodiy va savdo aloqalari, xorijiy investitsiyalarni jalb etish sohasida boshqaruv tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi 3631-sonli Farmoni.

1.12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003 yil 6 maydagi "Kapital qurilishda iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirishning asosiy yo'nalishlari to'g'risida"gi Farmoni.

1.13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014 yil 19 sentyabrdagi "Axborot tizimlari va dasturiy mahsulotlarni ishlab chiqishga xorijiy investitsiyalarni jalb etish to'g'risida"gi 2237-sonli Qarori.

1.14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 21 dekabrda "2011-2015 yillarda O'zbekiston Respublikasi sanoatini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida"gi 1442-sonli Qarori.

1.15. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009 yil 9 apreldagi "“Navoiy” erkin-industrial iqtisodiy zonasi faoliyatini tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 105-sonli Qarori.

1.16. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 23 dekabrda "O'zbekiston Respublikasining 2017 yilgi Investitsiya Dasturi to'g'risida"gi Qarori.

1.17. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining 2016 yilgi Investitsiya dasturi to'g'risida"gi Qarori. 25 dekabr 2015 yil PQ – 2458 – son.

1.18. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining 2015 yilgi Investitsiya dasturi to'g'risida"gi Qarori. 17 noyabr 2014 yil PQ – 2264 – son.

1.19. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi" PF-4947-sonli Farmoni, 2017-yil 7-fevral.

1.20. Karimov I.A. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning mamlakatimizni 2015 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2016 yilga

mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruzasi. "Xalq so'zi" 2016 yil 16 yanvar.

1.21. Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilashni izchil davom ettirish - davr talabi // Halq so'zi, 2009 yil 14 fevral.

1.22. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari / - T.: "O'zbekiston" NMIU, 2009. -B. 56

1.23. Karimov I.A. Bank tizimi, pul muomalasi, kredit, investitsiya va moliyaviy barqarorlik to'g'risida. -T.: "O'zbekiston" NMIU, 2005.-B. 528.

1.24. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 488 b.

1.25. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 104 b.

1.26. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 56 b.

1.27. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 48 b.

## **II.Monografiya, ilmiy maqola, patent, ilmiy to'plamlar**

2.1. Malikov T.S. Moliya: O'quv qo'llanma. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi.-T.: "Iqtisod-moliya", nashriyoti, 2018 y. – 268b.

2.2. Malikov T.S., Jalilov Sh.Q. Moliyaviy tizim: Zamonaviy talqin: o'quv uslubiy qo'llanma. - T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2016, - 116 b.

2.3. Abdullaeva SH.Z. Xalqaro valyuta-kredit munosabatlari. –Toshkent "IQTISOD-MOLIYA", 2005.–588 b.

- 2.4. Abdullaev YO.A., Qoraliev T.M., va boshqalar “Bank ishi”. O‘quv qo‘llanma - B.M.: T.: “Iqtisod-Moliya”, 2009. - 576 b.
- 2.5. Bobakulov T.I. Milliy valyutaning barqarorligi. Monografiya. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2007.–184 b.
- 2.6. Boltaboev M.R., Qosimova M.S. va boshqalar. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik. –T.: TDIU, 2010y. 240 b.
- 2.7. Vaxobov A.V, Xajibakiev Sh.X., Muminov N.G. Xorijiy investitsiyalar. O‘quv qo‘llanma. – T.: “Moliya”, 2010. - 174 b.
- 2.8. Jumaev N.X. O‘zbekistonda valyuta munosabatlarini taritibga solish metodogiyasini takomillashtirish.T. “Fan va texnologiya”,2007y.286b.
- 2.9. Inomov H.H – Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. O‘quv qo‘llanma. – “Toshkent” 2009. - 33 b.
- 2.10. Norqobilov S., Dadaboeva H., Jo‘raev O‘. Xalqaro amaliyotda bank nazorati. –T.: “IQTISOD–MOLIYA”, 2007. 35– 71 b.
- 2.11. Rasulov T.S. Xalqaro valyuta munosabatlari nazariyasi. –Toshkent “Moliya”, 2008. -59 b.
- 2.12. Tojiev R. R. "Xalqaro valyuta-kredit munosabatlari". Toshkent, TDIU nashriyoti, 2009 yil, 301-b.
- 2.13. Qosimova M.S., Samadov A.N. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik. –T.: TDIU, 2010 y. 284 b.
- 2.14. Mamatov B.S., Xujamkulov D.Y., Nurbekov O.Sh. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. Darslik. –T.: Iqtisod-Moliya, 2014.

### **III. Foydalanilgan boshqa adabiyotlar.**

- 3.1. Ziyayev A. Bank kapitalining o‘rish omillari va manbalari.//Bozor,pul va kredit. – Toshkent 2016. №3. – B. 22-26.
- 3.2. Axmedov A.S. O‘zbekistonda investitsiya muhitini yaxshilashda tijorat banklarining investitsion faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlari.//Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. – Toshkent 2015. №3.

3.3. Raxmatullayeva F.M. Xorijiy investitsiyalar tavakkalchiligini pasaytirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish. Diss.: iqtisod fan nomzodi. –T.: 2009.

3.4. Saiful Bahri Mohd Kamal, Dahlia Zawawi, Dahlan Abdullah. Entrepreneurial Orientation for Small and Medium Travel Agencies in Malaysia. Procedia Economics and Finance. Vol. 37, 2016, Pages 115 – 120, c.

3.5. Internet saytlari

- [www.lex.uz](http://www.lex.uz) (O'zbekiston Respublikasi qonunlar bazasi sayti)
- [www.cbu.uz](http://www.cbu.uz) (O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki sayti)
- [www.iqtisodiyot.uz](http://www.iqtisodiyot.uz) (TDIU Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar ilmiy-elektron jurnali sayti)
- [www.uza.uz](http://www.uza.uz) (O'zbekiston milliy axborot agentligi sayti)
- [www.gov.uz](http://www.gov.uz) (O'zbekiston Respublikasi hukumati sayti)
- [www.press-service.uz](http://www.press-service.uz) (O'zbekiston respublikasi Prezidenti Matbuoti sayti)
- [www.agrobank.uz](http://www.agrobank.uz) (ATB “Agrobank” sayti)
- [www.uzpsb.uz](http://www.uzpsb.uz) (“O'zsanoatqurilishbank” ATB sayti)
- [www.trastbank.uz](http://www.trastbank.uz) (“Trastbank” ATB sayti)
- [www.agmk.uz](http://www.agmk.uz) (“Olmaliq KMK” AJ) (<https://www.scopus.com>), (<https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S2212567116301010>).